

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI "PEDAGOGIKA" FAKULTETI

**"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi
4-bosqich "A" guruh talabasi Qo'ldashev Anvarbekning**

**« Tasviriy san'atda natyurmort janri va natyurmortda ranglar uyg'unligi.
(Mato, moybo'yoq 60X80)»
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

X.B.Ismonov

Andijon – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.	3-7
---------------------	------------

I-BOB. Rangtasvirda rang munosabatlari, natyurmort ishlashning o‘ziga hos hususiyatlari.	8-37
---	-------------

I-1. Rangtasvirda rang munosabatlari va akvarel bilan ishlash texnologiyasi	12-25
--	--------------

I-2. Naturadagi rangtasvir jarayoni va natyurmort ishlashning o‘ziga xosliklari	25-37
--	--------------

II-BOB. Natyurmort ishlash usullari hamda natyurmortda ranglar uyg‘unligi	38-60
---	--------------

2.1 Natyurmort – rangtasvirning mustaqil janri sifatida. Natyurmort tuzish va uni tasvirlash usullari.	40-48
--	--------------

2.2 Natyurmortda ranglar uyg‘unligi	48-51
---	--------------

Xulosa.	52-55
----------------------	--------------

Foydalanilgan adabiyotlar.	56
---	-----------

Ilovalar.	57-60
------------------------	--------------

KIRISH

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z milliy tili, madaniyati, qadriyatlari, tarixini bilishga, o'zligini anglashga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, «O'zbekiston tarixi»ni haqqoniy yoritishga alohida e'tibor berila boshlandi. Haqqoniy deb aytishimizga sabab «sobiq sho'rolar» davrida bir necha yuz ming yillik tariximiz buyuk ajdodlarimiz hayoti faqat o'sha davr mafkurasi ruhida salbiy jihatdan yoritilib, uning asl mohiyati "soya" ostiga olingan edi.

Birgina jadidlar davriga nazar tashlasak, xalqimiz ma'rifati, madaniyati va ma'naviyati uchun ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz: Avloniy, Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi o'nlab ziyolilar o'sha davr mafkurasi nuqtai nazaridan qoralanib, qatag'on qilindi hamda turli yurtlarga surgunga yuborildi.

Mustaqillik sharofati bilan bunday ajdodlarimiz nomi tom ma'noda qayta tiklandi. Hozirgi kunga kelib, tariximizni haqqoniy yoritishimizga keng imkoniyatlar ochildi. Bu borada yurtboshimizning shaxsan tashabbuslari, fikr va g'oyalari bilan ko'rsatayotgan e'tibori ayniqsa, diqqatga sazovordir. Yurtboshimiz tomonidan 1991 yilni buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy nomi bilan atalishi, 1994 yilning Mirzo Ulug'bek, 1996 yilning Amir Temur yili deb nomlanishi, bu borada olib borilgan ma'naviy va ma'rifiy ishlar fikrimizning yaqqol dalilidir.

1993 yilda yurtboshimiz I.A.Karimov bir guruh ijtimoiy-gumanitar fan vakillari bilan bo'lgan uchrashuvda tariximizni, o'zligimizni kayta tiklash borasida o'z ko'rsatmalarini berdi. Yurtboshimiz bu boradagi o'z qarashlari bilan o'rtoqlashdi. 1997 yilda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va 1998 yilda tarixchi olimlar bilan bo'lgan uchrashuvda shu sohadagi kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor berishga, «o'zbek davlatchiligi tarixini» yanada chuqurroq o'rganish borasida bir qator ko'rsatmalarini berdilar.

Yurtboshimizning 1998 yilda chop etilgan «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli asarida: «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi» - degan isbot talab qilmaydigan haqiqatni «davlat siyosati darajasiga ko'tarish zarurligi»ni ta'kidlaydilar.

«Inson uchun tarixidan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir». Zero, tarix xalq ma'naviyatining asosidir. Bugungi kunda bizning tariximizdan xabardor bo'lgan halqlar va davlatlar naqadar buyuk tarixga ega ekanligimizga yana bir bor ishonch hosil qilishmoqda.

Prezidentimiz: «Modomiki, o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur» - deb ta'kidlaydi. Yurtboshimizning nafaqat tarixiy, balki boshqa ko'plab asarlari jamiyatimizning bir qator sohalari rivojida ham muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi: Mamlakatimiz siyosatida komil inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi - deb e'lon qilingan. "Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz"- deb ta'kidlaydilar. Bir so'z bilan aytganda haqqoniy tarixni yaratish keng jamoatchiligimiz uchun muhim va dolzarb masaladir. Bu borada Prezidentimiz asarlari uslubiy qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda.

Respublikamizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va ma'naviyatining o'rni beqiyosdir. Xalqimizning ma'naviyati va madaniyatini boyitishda tasviriy sanatning o'rni katta. Xozirgi davrda har sohada bo'lgani kabi tasviriy san'atda ham katta o'zgarishlar bo'lmoqda.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari xozirgi kunda umumta'lim maktablari, kasb – xunar kollejlari va oliygoh talabalari pedagogik faoliyati va badiiy ijodkorligini o'stirishda katta ahamiyatga ega.

Bo'lajak rassom yoki tasviriy san'at fani o'qituvchisi tasviriy sang'atning ifoda vositalari haqida chuqurroq ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ularning foydalanish yo'llarini mukammal egallashi kerak bo'ladi. O'qituvchi qalam va bo'yoqlar bilan tasvirni bajarish malakasi bilan birgalikda, shu sohada nazariy va amaliy bilimlarni o'quvchilarga yetkaza olishi ham zarur. Buning uchun rangtasvir haqidagi nazariy va amaliy, metodik ma'lumotlarni oliygohda bilim olish jarayonida va o'quv amaliyotlarida mukammal egallab olishi kerak bo'ladi.

Oddiy geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortdan boshlab vazifalarni metodik izchillik bilan murakkablashtirib borish, shakli, tuzilishi va materiali har xil bo'lgan bir qator buyumlardan iborat natyurmortlar tuzib, ularni tasvirlash rassomchilik sirlarini o'rgatishda ishonchli va sinalgan yo'ldir.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi: Respublika hukumati tomonidan yaratilgan va butun xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997-yili "Ta'lim togrisida"gi qonun va kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur qabul qilindi. Unda "O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik ananalar, jamiyatning istiqbolidagi rivojlanishni hisobga olgan holda yurgiziladi" - deyilgan.

Shuning uchun ajdodlarimizning boy tajribalarini yosh avlodga o'rgatish, ularda ilm-ma'rifatga, madaniy qadriyatlarga va kasb-hunarga qiziqtirish, ustoz-shogird an'analari asosida tarbiyalash o'quvchilarning ahloq odobiga, bilim darajasiga, umuman, ularning ma'naviyatining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Asrdan –asrga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan

ulug‘ ajdodlarimizning milliy-ma‘naviy merosi shaxs kamolotiga juda ahamiyatlidir. Bu maqsadlarni amalga oshirishda ajdodlarimizning bizga qoldirgan ma‘naviy hazinalaridan o‘rinli foydalanish, ularni yosh avlodga ko‘proq tanishtirish, o‘rgatish lozim bo‘ladi. Ana shu ma‘noda san‘atning ayniqsa, tasviriy san‘atning o‘quvchilarni ma‘naviy yuksak, go‘zal va nafosatli bo‘lib tarbiyalanishlarida ahamiyati beqiyosdir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari: Men bu ishni bajarishdan asosiy maqsadim natyurmort janri orqali o‘quvchilarni tasviriy san‘atga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttirish hamda ranglar uyg‘unligini ifodalab berish. Ranglarni qay darajada ko‘ra olishimiz, ularning uyg‘unligini chiqarish va bir-biriga ta‘sirini anglay olishimiz bizni tasavvur qilish qobiliyatimizni va dunyoqarashimizni yanada kengayishini ta‘minlay oladi. Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy vazifasi ham ana shunda deb o‘zylayman.

Bitiruv malakaviy ishning ob‘ekti va predmeti: Aytilish mumkinki, biz himoya qilayotgan mavzu uchun natyurmort tasvirlovchi hamda turli rangtasvir ustalari va kartinalari ishimiz uchun ob‘ekt va predmet bo‘la oladi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi hamda amaliy ahamiyati: Xozirgi kunda umumta‘lim maktablarida natyurmort mavzusini 5-sinf o‘quvchilari uchun ham kiritib ketgan. Bizning xozirgi himoyamiz kelgusi pedagogik faoliyatimizda o‘quvchilarga natyurmort mavzusini o‘rgatishning qulay usullarini anglashimizga va o‘rgata olishimizga asos bo‘la oladi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: Mening Bitiruv malakaviy ishim mavzusi **“Tasviriy san‘atda natyurmort janri va natyurmortda ranglar uyg‘unligi”**-deb nomlanadi. Mazkur mavzuni bejiz tanlamadim, albatta. Men taqsil olish davrida ham, o‘z pedagogik faoliyatim davrida ham natyurmort ishlashni eng sevimli mashg‘ulotim sifatida sevaman.

Natyurmort tasviriy san‘atning eng qadimiy va mustaqil janri hisoblanib, kishilar qalbida tabiat ne‘matlariga, go‘zalliklariga nisbatan chuqur mehr-muhabbat uyg‘otuvchi sehrli san‘at hisoblanadi. O‘quvchilar natyurmort asarlarini o‘rganish va o‘zlari mustaqil ravishda natyurmort ishlashlari jarayonida tabiat ne‘matlari, ularning go‘zalliklari va qadri haqida fikrlashni o‘rganadilar. Mening ishlayotgan natyurmortim **“Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchilar qalbida mustahkamlash yo‘lidagi harakatlarim mevasidir.** Unda meva va gullar tasvirini bajarish orqali o‘quvchilarda tasviriy san‘atning natyurmort janriga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish, ularni go‘zallikka oshno etish g‘oyalarini ilgari surganman. Mavzuni muayyan reja asosida yoritib berishga harakat qildim. Rejam kirish, ikki bob va xulosadan iboratdir. Birinchi bob **“Rangtasvirda rang munosabatlari, natyurmort ishlashning o‘ziga hos hususiyatlari”**- deb nomlanadi. Birinchi bobni ikki qismga ajratib yoritganman, uning birinchi qismi Rangtasvir, rang munosabatlari va akvarel bilan ishlash texnologiyasi xususidagi fikrlarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi qism naturadagi rangtasvir jarayoni va natyurmort ishlashning

o'ziga xosliklariga bag'ishlanadi. Ikkinchi bob **“Natyurmort ishlash usullari hamda natyurmortda ranglar uyg'unligi”**- deb nomlanib, uning birinchi bo'limi **“Natyurmort – rangtasvirning mustaqil janri sifatida. Natyurmort tuzish va uni tasvirlash usullari”** - deb nomlanadi. Uning ikkinchi bo'limi **“Natyurmortda ranglar uyg'unligi”** -deb nomlanib, bu bo'lim **“Guldastali natyurmort”** natyurmorti misolida yoritib beriladi. Malumki, Bitiruv malakaviy ishida talabaning olgan nazariy bilimlari, izlanishlari va ijodiy qobiliyati sarhisob qilinadi. Ana shu ma'noda men mavzuni yoritishni **“natyurmort”** tushunchasini tavsiflashdan boshlab, natyurmortning paydo bo'lishi, rivojlanishi hamda natyurmort asarlari bilan nom chiqargan mashhur musavvirlar xususida ham ma'lumot berishni joiz deb bildim. Natyurmort qo'yilmasi uchun detallar tanlash, ularni qoralab olishdan tortib moybo'yoqda tasvirlash hamda moybo'yoqdan foydalanish yo'l-yo'riqlari xususida fikrlarimni bayon etdim. Dastlab nazariy bilimlarim, tajribalar, izlanishlar, eskiz va etyudlar xususida yozdim. Oxirgi bo'limida **“Guldastali natyurmort”** natyurmortining tasvirlanish jarayonlarini o'z tajribalarim tafsilotlarini ifodalab berishga harakat qildim. O'ylaymanki, ushbu Bitiruv malakaviy ishimdagi izlanishlarim, natyurmort ishim kelajak avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalashda azqotadi. Ular uchun kerakli manba, material bo'lib hizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi: Bitiruv malakaviy ishni bajarishda biz ko'plab natyurmort tasvirlash usullari, metodikasi, natyurmort chizish bosqichlari, natyurmort tasvirlashni o'rgatuvchi adabiyotlar hamda internet ma'lumotlaridan o'rganib, xulosaladik. Ranglarning o'ziga hos xususiyatlari, ularning hosil bo'lishi va amaliy ishda moybo'yoq , akvarel yoki boshqa bo'yoqlardan qanday foydalanish kerakligini kerakli manbalardan ko'rib o'rgandlik.

I-BOB.

RANGTASVIRDA RANG MUNOSABATLARI, NATYURMORT ISHLASHNING O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI.

Natyurmort va uni ishlash usullari haqida fikr yuritishdan oldin biz rangtasvir haqida aytib o'tsak. Albatta har bir tasviriy san'at soxasi bilan faoliyati bog'liq inson - hoh u rassom bo'lsin, hoh tasviriy san'at fani o'qituvchisi yoki shu soha bilan bog'liq bo'lgan xunarmand :- barchasi birinchi o'rinda qalamtasvirni yaxshi bilgan holda rangtasvirga kirib boradi (rangtasvirga bog'liq sohalarda). Shu o'rinda rangtasvir o'zi nima-?, rangtasvirda qalam tasvirning o'zini qanday-? degan savollarga javob berib o'tamiz.

Rangtasvirning ilmiy negizini rangshunoslik fani tashkil qiladi. Rangshunoslik bo'lg'usi rassomlarga ranglarni tabiatda hosil bo'lishi va tarqalishi masalalarini ularning atrof-muhit ta'sirida o'zgarib ko'rinishini, bo'yoqlarini tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llarini o'rgatadi.

O'rta Osiyoda ranglar haqidagi talimot qadimdan kitob miniatyurasi, naqqoshlik, devorlarga freska, pannolar ishlash bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Chunki musavvirlik xunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etadi. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishga bog'liq kimyoviy jarayonlarni o'rgangan bo'lishi kerak.

Ranglarni tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalish hodisalari qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan. Uyg'onish davri buyuk rassomlari va nazariyachilari Mon Batista Alberti, Leonardo da Vinchi va boshqalar rangtasvir haqidagi asarlarida ranglarning hususiyatlari haqida yozganlar.

Rang inson hayotida muhim ro'l o'ynaydi. U turli vaziyatlarda odamga har xil tasir etadi. Shuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etishi mumkin bo'lgan «hira»-deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday hususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatida unumli foydalanib kelganligi malum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib fikrlar uyg'otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. Shuning uchun tasviriy sanatning juda ko'p turlari janrlarida rang ham, uni ishlata bilish ham juda katta ahamiyatga egadir. Ammo u qalamtasvirning muhim ekanligi bilan quvvatli ekanligi malum xaqiqatlardan eng asosiysi desak to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun qadimdan qalamtasvirda ishlashga rangtasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang hususiyatlarini yaxshi bilish har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan malumki, ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, ko'k ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va ko'kni qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali esa zarg'aldoq, sariq va ko'kni qo'shish orqali esa yashil ranglarni hosil qilish mumkin. Ranglar tabiatan ikki xil hususiyati: iliq va sovuq hususiyatlari bizga ma'lum. Iliq ranglar qatoriga qizil, sariq, zarg'aldoq va ularga yashil ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan ranglar kiradi. Shuningdek bular barchsi axromatik ranglardir. Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir biridan faqat och to'qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kulrang, qora, qoraroq, juda qora, va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir biridan rang tusi bilan farq qiladi, ya'ni – qizil, sariq, ko'k, yashil, jigarrang va hokazo.

Ranglar yana och-to‘qligi ya’ni och qizil, to‘q sariq. to‘q qizil, och sariq va to‘yinganligi ya’ni yorqin, hiraligi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast» ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko‘rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang yorqin bo‘lib ko‘rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoniyasini, ya’ni ranglar uyg‘unligini, bilish katta ahamiyatga ega.

Narsa va xodisalarni tasvirlashda moybo‘yoq , tempera, akvarel, guash kabi bo‘yoqlar ishlatiladi. Narslarni bo‘yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo‘lib, kishidan ranglarning hususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullari texnikasini bilishni taqozo etadi. Bo‘yoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirda ishlashning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tasvirlar ekan u ranglarga jiddiy etiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko‘rinishi farqli ekanligini bilib olish mumkin. Chunki narsaning rangi bizdan uzoq yaqinligiga qarab o‘zgarib ko‘rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko‘rinishiga ta’siridandir. Qog‘oz sathida ranglar munosabatlarini to‘g‘ri nisbatlarda topib ishlatish rangtasvirning xaqqoniy aks etishida muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb xisoblasak o‘rinlidir. Akvarel bo‘yog‘ida ishlash ham o‘z navbatida jiddiy o‘qib o‘rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg‘ulotdir. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o‘rganib borishni taqazo etadi. Arxromatik ranglardan boshqa barcha ranglar, ya’ni biror rang tusiga ega bo‘lgan ranglar xromatik ranglarga kiradi. Quyosh spektorining barcha ranglari hamda ularning bir birlari bilan aralashtiruvidan hosil bo‘lgan hamma ranglar jumlasidandir. Shuningdek, oq rang ham xromatik ranglar jumlasiga kiradi.

Xromatik ranglar axromatik ranglardan farqli o‘laroq, faqatgina yorug‘ik kuchlari bilan emas, balki nomlari, tushlari jihatidan ham ajralib turadi. Masalan, sariq rang qizil ranglar ham yorug‘lik kuchi bilan ham rangining tushi bilan ham keskin farq qiladi. Har bir xromatik rang uchta xossaga ega. Ular rang tusiga, rang yorug‘ligiga (bunda kam yoki ko‘p yorqinlik ko‘zda tutiladi), rang to‘yinganligiga (bunda kam yoki ko‘p yorqinlik kuzda tutiladi) ega bo‘ladi. Har bir xromatik rang ana shu uchta xossaga ko‘ra bir birdan farqlanadi.

Yuqorida aytilganlardan ma’lum bo‘ladiki, xromatik ranglar bir biridan uchta asosiy xossasi-rang toni (rangning o‘zi), rangni och-to‘qligi va to‘yinganligi bilan farq qilar ekan. Spektorni sinchiklab kuzatsak , uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglar orasida o‘xshashlik alomatlarini sezamiz. Ikkala rang bir biriga qo‘shilsa, ularning oralig‘ida qirmizi ranglar hosil bo‘ladi. Bu xosil bo‘lgan rangni qizil rang bilan binafsha rangning o‘rtasida joylashtirib, spektor tutashtirilsa, halqa kelib chiqadi. Buni rangshunoslikda ranglar doirasi deb yuritiladi. Ranglar doirasidan qizil, qizg‘ish zarg‘aldoq, sariq, sarg‘ish yashil, yashil tab zangori

havorang, ko'kimtir havorang, ko'k, ko'kimtir binafsha, qirmizi ranglarning har xil tuslari ko'rinadi.

Ranglar doirsida rang tuslari juda ko'p bo'lishi mumkin. Lekin ko'zlarimiz ularni 150 taga yaqinini ajratishga qodir. Ranglarning doira bo'ylab joylashish tartibi muayyan saqlanadi. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish yashil (pistoqi) ranglar, ikkinchi yarmida esa yashil havorang, feruza, zangori, ko'k binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab –qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni cho'g'ni eslatga, havorang, zangori, yashil ko'klar esa muzning, suvning rangini eslatadi. Bu farklanish nisbiy bo'lib, har qanday iliq ham o'ziga nisbatan iliqroq rang yonida sovuq bo'lib ko'rinishi va aksincha, sovuq rang o'zidan sovuqroq rang yonida iliqroq tuyilishi mumkin.

Kimyo fani bo'yoqlarning topilishiga, moddalarni kimyoviy usulda qo'shib, bo'yoqlarning retseplarini aniqlashga yordam beradi. Buyoqlar asosan ikki xil yo'l bilan tayyorlanadi. Bo'yoqlarning nomlari ko'pincha, qazilmadan qazib olingan joyning nomi bilan ajralib kelinadi.

Masalan, bo'yoqlardan neopolitan sarig'ini olsak, bu sarg'ish malla rang bo'yoq Italiyaning Neapol shaxri atrofdagi tog'lardan vulqon bilan otilib chiqqan moddadan tayyorlanadi. Xalilovka oxrasi – oltin tusli buyoq bo'lib, Uralda Orenburg rayonida Xalilovka qishlog'ida olinadi. Hind sarig'i – to'q sariq bo'yoq, Hindistonning Bengaliya shtatida o'sadigan hurmo daraxti yaprog'idan tayyorlanadi. Yana ayrim yorqin qizil bo'yoqlarni kichkina jonivorlardan – dub daraxtida yashovchi ko'ng'izcha (kattaligi 2-8mm), Shimoliy Amerikada yashovchi qizil chuvalchangdan tayyorlanadi.

Rang tusi ranglarning to'liq uzunligiga qarab belgilanadi. Rangning bu hossasiga ko'ra biz ko'z orqali qizil, sariq, zangori va boshqa spektral ranglarni ko'ramiz hamda idrok qilamiz. Lekin rang tuslari ularga qo'yiladigan rang nomlariga qaraganda ancha ko'pdir. Rang tusining to'liqlar uzunligi o'zgarmaydi. Chunki oq rang qo'shilganda, faqatgina rang yorqinligi o'zgaradi va qaytarish koeffisienti bilan ifodalanadi. Yorqinlikni aniq o'lcham uchun fotometr degan asbobdan foydalaniladi. Rang tuslari spektr ranglariga qanchalik yaqinlashsa, ularning yorqinligi shunchalik yaxshi bo'ladi. Rangtasvir va rang munosabatlari haqida quyida kengroq fikr bildirishga harakat qilamiz

I-1. Rangtasvirda rang munosabatlari va akvarel bilan ishlash texnologiyasi.

Rangtasvir deb tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. Bu tur uchun asosan bo'yoqlar — moyli buyoq, akvarel, guash, tempera, shuningdek, rangli qalamlar, ko'mir, qalam, pastel, sous, sangina kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterlidir.

Rangtasvir asarlari qog'oz, mato, kardon, devor, oyna, yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi. Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Har qanday rangtasvir ishida, avvalo, uning rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, nur va soya, rang asosiy o'rinni egallaydi.

Rangtasvir asarlari bajarilish texnikasi jihatidan turli-tuman bo'lib, ular moybo'yoqli, temperali, freskali, mozaikali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli bo'lishi mumkin.

Rangtasvirning quyidagi turlari mavjud:

- 1. Dastgohli rangtasvir.**
- 2. Monumental (mahobatli) rangtasvir.**
- 3. Miniatyura (mo'jaz) rangtasviri.**
- 4. Dekorativ (bezak) rangtasvir.**
- 5. Teatr-dekorativ (bezak) rangtasviri.**

Dastgohli rangtasvir deyilganda, rassomlarning maxsus asbob-dastgox. (molbert) yordamida ishlaydigan su'ratlari tushuniladi. Dastgohli rangtasvir asarlari uncha katta bo'lmagan o'lchovda yuqorida qayd qilib o'tilganidek mato, kardon, oyna, faner kabi tekis yuzali materiallarga bo'yoqlar bilan ishlanadi. Dastgohli rangtasvirda ko'pincha moyli va akvarel bo'yoqlar qo'llaniladi.

Monumental rangtasvir atamasi monumental (mahobatli), ya'ni katta o'lchovdagi rangtasvir ma'nosini anglatadi va bu turdagi asarlar ko'pincha binolarning ichki va tashqi devorlariga tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi. Monumental rangtasvir asarlarining freska, mozaika, vitraj, panno kabi turlari mavjud.

Freskalar asosan bino devorlarining o'ziga ishlanadi .

Mozaika — turli tabiiy va ikkilamchi materiallar — rangli oyna parchalari, toshlar, sintetik materiallardan bino devorlariga yoki tekis materiallar ustiga ishlanadi .

Vitraj esa binolarning deraza, eshik, oynalari ustiga bo'yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichkarisi va tashqarisidan ham bir xil ko'rinadi .

Miniatyura (mo'jaz) rangtasviri deyilganda bejirim, juda kichik, jajji, nozik san'at asarlari tushuniladi. Miniatyura rangtasviri o'rta asrlarda kitob bezagi bilan bog'liq holda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezak, zarhalharf, illyustratsiyalardan iborat bo'lgan . Rangtasvirning bu turi Sharqda, shu qatori Movrounnaxrda katta shuhrat qozongan. Xozirda u mustaqil san'at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki turli quticha, tomosha qovoq kabilarni bezatishda ham keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, bu tur mustaqil san'at sifatida yildan-yilga ommalashib bormoqda.

Dekorativ rangtasvir asarlari mustaqil amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u binolarning ichki va tashqi devorlarini bezatishda keng qo'llaniladi. Ular panno shaklida, shuningdek, quticha,

patnis, sandiq, shkaflarni bezatishda qo‘l keladi. Bino ichini bezatishga xizmat qiladigan naqshlar, frizlar namoyon kabi mayda elementlar ham dekorativ rangtasvirga kiradi.

Teatr dekorativ rangtasviri spektakl dekoratsiyalari, unda ishlatiladigan grim, sahna jihatlari bilan bog‘liq. Ular teatr rassomi tomonidan tayyorlanib, spektakl mazmunini tomoshabinga keng va chuqurroq singdirishga yordam beradi. Bu bezaklarda rassomlar sahnaning yoritilishi va ranglarga alohida e‘tibor qaratadilar. Spektakl bezaklari unda ifodalangan voqea sodir bo‘layotgan joy, davr, muhit to‘g‘risida tomoshabin tasavvurlarini boyitadi, voqealarni idrok etishni osonlashtiradi va faollashtiradi. Tasviriy san‘at nazariyasi va amaliyotida **akademik rangtasvir** iborasi ham ishlatiladi.

Akademik rangtasvir asosan o‘quv jarayonida foydalaniladigan ko‘rgazmali rangtasvir ishlarini nazarda tutadi. Rangtasvirda qanday ish bajariladigan bo‘lsa, shu holatda ish bajariladi, faqat akademik rangtasvirida ko‘rgazmalilikni mo‘ljallagan holda ishga chuqurroq kirib boriladi va detallashtirib yakuniga yetib, to‘liq bitiriladi. Rangtasvirda ishlash uchun, uni yaxshi o‘zlashtirish uchun avvalo ranglar haqida to‘liq va to‘g‘ri bilimga ega bo‘lish lozim bo‘ladi. Rangtasvir asarlarini maromiga yetkazib bajarish uchun har bir rassom ranglar gammasini va ularning harakteristikasini yaxshi bilishi lozim bo‘ladi.

Asosiy va to‘ldiruvchi ranglar. Ranglar gammasining harakteristikasi. Iliq va sovuq ranglar.

Tus va rang munosabatlari. Spekr.

O‘quvchilarning ishiga to‘g‘ri rahbarlik qila olish uchun bo‘lajak o‘qituvchi rangtasvir asoslarini puxta egallashi va rangshunoslik nazariyasini bilishi shart. Shuning bilan birga haqqoniy rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o‘zlashtirish va amaliy mashq qilish natijasida savodli rasm ishlash yo‘llarini o‘rgangish mumkin. Ranglarni tabiatda qanday hosil bo‘lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan.

Mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. M.V.Lomonosov fanda birinchi bo‘lib, asosiy ranglarni kashf etgan. Isaak Nyuton qator tajribalar o‘tkazib, oq yorug‘likni ko‘p rangli ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarni hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o‘tkazib, uning yo‘liga uch qirrali prizma qo‘ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug‘lik yig‘indisi hosil bo‘lgan. Ekranda spektr ranglari paydo bo‘lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg‘aldoq, yashil, zangori, havorang va binafsha ranglar.

Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o‘rgangan bo‘lsa, nemis shoiri va san‘atshunosi **I.V.Gyoteni** ranglarning kishi organizmiga ko‘rsatadigan ta’siri ko‘proq qiziqtirgan. U “**Ranglar haqida ma’lumot**” nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tushlarga ajratgan. Iliq (sarg‘ish, qizil) ranglar kishida kayfi chog‘lik tuyg‘usini, sovuq (havorang, yashil) ranglar esa ma’yuslik tuyg‘usini uyg‘otishi haqida yozgan.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi **G.L.Gelmgols** rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarni uchta asosiy alomati - rang tusi, rangning och-to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko'rsatdi.

Ilmiy izlanishlar va amaliyot jarayonida qator qonun va qoidalar ishlab chiqilgan bo'lib, talaba o'zining o'quv jarayonida va ijodiy ishida ularga bevosita amal qilishi shart.

Tabiatdagi ranglar o'z xususiyatiga ko'ra ikki turga: axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli) xillarga bo'linadi.

Axromatik ranglarga oq, kulrang va qora ranglar kiradi. Ular o'zaro almashtirilganda esa yana bir qancha tusdagi ranglarni xosil qiladi.

Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uning tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yinmaganligi deganda, uning kulrangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushunish kerak.

Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havorang, zangori, ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilar esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab, qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni cho'g'ini eslatadi, havorang, zangori, yashillar esa muzni, suvning ranggini eslatadi.

Ikkita spektr ranglarni ustma-ust tushurilsa, ranglar bir-biriga qo'shilib murakkab rang hosil bo'ladi. Qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bir-biriga qo'shilganda chiroyli tusdagi pushti, to'q qizil, sapsar siyohranglarni xosil qiladi. Qo'shilganda oq rang beradigan spektr ranglar qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi. Chunki ular oq rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havorang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi.

Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektr ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektr rang: qizil, yashil va havorang qo'shilganda, och holda tasvirlangani oqqa yaqin rangni hosil qiladi. Asosiy qizil, sariq va havorang bo'yoqlarini qo'shilishidan esa qoraga yaqin rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havoranglari qo'shilishi natijasida yashil rang xosil bo'ladi.

Demak, ikkita rangni optik aralashtirish natijasida oqqa yaqin nim kulrang hosil qiladigan ranglar to'ldiruvchi (qo'shimcha) ranglar hisoblanadi. Misol uchun to'q qizil va yashil, zangori va zarg'aldoq, qizil, sariq, havorang, sarg'ish yashil va binafsha ranglar o'zaro to'ldiruvchidir.

Talabalarda ranglarni ko'rish va idrok etish qobiliyati asta-sekin mashqlar orqali shakllanib boradi. Ranglarning kelib chiqishi va ularning xususiyatlarini chuqur o'rganish natijasida rassomlar bo'yoq nomlarini ham aniqladilar.

Akvarel bo'yoqlari 6,8,12,16,24 xil rangli to'plamlar holida bo'ladi. Ularni ishga tayyorlash vaqtida har birining ustidagi yorlig'ini asta ko'chirib olib, bo'yoq solingan plastmassa idishchani tagiga yopishtirib qo'yish va nomlarini eslab qolish lozim.

1.Limon rang kadmiy. 2.Sariq kadmiy. 3. Och oxra. 4. Tabiiy siena. 5. Oltinsimon sariq. 6. Zarg'aldoq kadmiy. 7. Qizil oxra. 8. Kuydirilgan siena. 9. Och qizil. 10. Guldor. 11. Qizil kraplak. 12. karmin. 13. Binafsha kraplak. 14. Ultramarin. 15. Ko'k kobalt. 16. Havorang. 17. Zumrad(yashil.). 18. Yashil permanent. 19. Sabza (yashil). 20. Tabiiy umbra (to'q jigarrang) . 21. Jigarrang mars (och). 22.Kuydirilgan umbra (jigarrang) . 23. Sepiya (chiroyli to'q jigarrang). 24. Qora.

Tabiatdagi narsalarning aniq ranggini belgilab ko'rsatadigan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Ammo yetuk rassom ranglarning o'zaro ta'siri va ko'rinish holatlarini idrok etib, ularning xususiyatlarini xisobga olgan holda har qanday narsaning ham ranggini chiqarib bera oladi. Tasvirda shunday jozibaga, hayotiy xaqiqatga erishish uchun rassomga ranglar nisbatini bilishi, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata bilishi yordam beradi. Masalan, olov rang qizilni kuchliroq yal-yal yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko'kimtir, havorang, yashil, zangori turlarda beriladi. Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart.

Bunga erishish uchun rangshunoslik fanini chuqur o'rganish va amaliy ish jarayonida bu masalalarga qayta-qayta murojat qilish kerak. Har-xil bo'yoqlar bilan (akvarel, guash, moybo'yoq) natyurmortlarni tasvirlash uchun yuqorida qayd etilgan tajribalarni o'tkazib ko'rish, bo'yoqlarning xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o'zlashtirish uchun mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rin egallaydi. Bunga sabab maktabda rasm chizishni o'rganishda akvarelning yetakchi o'rin egallashidir. Dars jarayonida va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar akvarel va guash bo'yoqlari bilan ishlaydilar. Tasviriy san'at to'garaklari va fakultativ mashg'ulotlarda o'quvchilarni bo'yoqlarning texnologiyasi va ularni qo'llash yo'llari bilan kengroq tanishtirish uchun o'qituvchining o'zi shu sohani puxta egallagan bo'lishi zarur.

Kasb-xunar kollejlari va oliygoh talabalari uchun ham asosan akvarelda ishlash uchun topshiriqlar beriladi. Keyinchalik asta-sekinlik bilan moybo'yoqqa o'tiladi.

***Akvarel bo‘yog‘ining xususiyatlari. Akvarelda ishlash
texnologiyasi va usullari. .***

Akvarel – lotincha so‘z bo‘lib, suvga qoriladigan bo‘yoq, shuningdek, akvareldan ishlangan rasm degan manoni bildiradi. Akvarel qadimgi Misr, Yaponiyada keng qo‘llanilgan, XXI asrdan akvarelda yirik sanat asarlari ishlash juda taraqqiy etgan. Akvarel bilan ishlash bundan bir yarim asr avval Angliyada rivojlangan edi. D.Kozens, Tyorner, D.Konstabel, R.Bonington, G.Gyorten kabi rassomlar o‘zlarining akvarelda ishlangan asarlarida Angliyaning go‘zal tabiatini mohirlik bilan tasvirlaganlar. Rossiyada esa akvarel bilan ishlash sanati XVIII asrdan etiboran keng yoyila boshladi. O‘rta asrlarda Rossiyada bo‘lganidek, G‘arbiy Yevropada ham akvareldan cherkovga qarashli bo‘lgan diniy kitoblarni naqsh va illyustratsiyalar bilan bezashda foydalanildi. Lekin bu vaqtlarda akvarel oq bo‘yoq moddasi qo‘shilgan holda ishlatilar edi.

O‘rta Osiyoda akvarelda kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qo‘llanildi. O‘rta Osiyo rassomlari ichida ayniqsa, Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatyura hamda illyustratsiyalar ishlashda shuhrat qozondi. XIX asrning oxirlarida akvarelda I.Ye.Repin, V.A.Serov, M.A.Brubel kabi rassomlari o‘z asarlarida yangicha sifatlarini namoyish qildi. Rus tasviriy sanati namoyondalari A.M.Grasimov, S.V.Gerasimov, O.G.Vereyskiy, Kukrinskiylar, Yu.I.Neprensev va boshqalar ham akvarelda ko‘plab qiziqarli asarlar yaratdilar. Ular yaratgan asarlarning ko‘pchiligini kitoblarga ishlagan illyustratsiyalar tashkil etadi.

O‘zbekistonda esa akvarelda ishlash sanatining rivojini B.Xamdamiy, O‘.Tansiqboev, G.Shevyakov, G.Siganov, K.Cheprakov va ayniqsa Ch.Axmarovning ijodida ko‘rish mumkin. Akvarel bilan ishlash usullarining murakkablashuvi, takomillashuvi uning turlarini ko‘payishiga va xilma-xillashuviga olib keldi. Xozir akvarelning bir qancha turlari mavjud, Chunonchi qattiq, yumshoq va xamirsimon holdagi akvarellar. Bu bo‘yoqlar badiiy bilim yurtlarida ayniqsa amaliy va dekorativ sanat o‘quv yurtlarida kompozitsiyalar, eskizlar tuzishda qo‘llaniladi. Akvarel bo‘yoqlari ikki qismdan: bog‘lovchi element hamda bo‘yoq kukinidan tarkib topadi. Bog‘lovchi emulsiya tayyorlanadigan moddalarni tanlashda bo‘yoq rangini o‘zgartirmaydigan, qog‘ozga surtilganda tekis yotadiganlaridan foydalanadi.

Bog‘lovchi moddalar asosan gummi arabika, olcha, olxo‘ri va boshqa daraxtlarning shiralaridan tayyorlanadi. Daraxt shirasidan masalan, olcha shirasidan juda osonlik bilan eritma tayyorlandi. Shuningdek, bo‘yoqning tez qotib qolmasligi pishiqligini va suvda eruvchanligini oshirish uchun unga asal, glitsirin, dekstrinlar qo‘shiladi. Bog‘lovchi modda tayyorlanayotganda har bir element ko‘rsatilgan miqdorda olinishi lozim. Xar bir akvarel uchun bog‘lovchi emulsiya turli miqdorda tayyorlanadi.

Taxtacha ko‘rinishdagi akvarel uchun emulsiya shiraning dekstrining suvdagi eritmasi meva shakaridan tayyorlanadigan aralashmadan iborat bo‘ladi. Dastavval shiraning hamda dekstrining suvdagi eritmasi tayyorlanadi.

Meva shakari suv bilan aralashtirilib sirobsimon eritma hosil qilinadi. Ana shu uch xil eritma birgalikda to‘xtovsiz aralashtiriladi. Unga o‘tgan tayyorlangan aralashma va fenaldan kerakli tomiziladi. Chinni idishlardagi yumshoq akvarel uchun emulsiya tayyorlashda esa yuqoridagi moddalar ko‘proq miqdorda oshirib meva shakari o‘rniga asalari mumiyo va glitsirin qo‘shiladi.

Tyubiklarda chiqariladigan akvarel tarkibidagi bog‘lovchi elementining ko‘pchilik qismini asal tashkil etadi. Glitsirin va shira ozroq miqdorda qo‘shiladi.

Akvarel tayyorlashda qo‘llaniladigan bo‘yoq kukunlari tabiiy yoki suniy kukunlar bo‘lishi mumkin. Ayrimlari o‘simliklar yoki hayvonlarda uchraydigan pigmentlardan masalan, jigar rang, karminli bo‘yoqlardan tayyorlanadi. Bo‘yoq kukunlarini tanlashda va tayyorlashda ularning tiniqligiga, bir- biriga yaxshi aralashishiga e‘tibor berish lozim. Masalan, quyidagi bo‘yoq kukunlardan foydalanish tavsiya etiladi. Sariq kukunlar tabiiy, jigar rang, sariq mars, zarg‘aldoq mars va xakozolar.

Qizil kukunlar: qizil tusli mars, qirmizi.

Binafsha: binafsha tusagi kukun.

Yashil kukunlar: zumrad rang, yashil rangli ranglar.

Zangori: zangori ranglar.

Jigarrangli kukunlar : kuydirilgan jigar rang, jigar rang mars.

Qora kukunlar:- uzumdan olinadi.

Akvarel tayyorlash uchun bo‘yoq moddasi tayyor emulsiyaga aralashtiriladi, tosh plita yoki maxsus xovonchada yaxshilab ishlanadi. Agarda sinash uchun olingan bo‘yoq suvda yaxshi erisa, aralashtirish hamda ishlov berish uchun tayyor bo‘lgan hisoblanadi. Shuni esda tutish lozimki, quyilgan akvarel bo‘yog‘i quriganidan keyin o‘z rangini biroz o‘zgartirib olishadi. Bunga bo‘yoq qavatidan suvning bug‘lanishi, qog‘ozga singishi ta‘sir etadi.

Akvarelda ish bajarish rangtasvirning eng nozik jihatlaridan biridir. Qadimdan akvarel o‘zining nafisligi va ranglarning yorqinligi bilan ko‘pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarelda oq rang ishlatilmaydi, uning o‘rnini oq qog‘ozning o‘zi o‘taydi. Qog‘oz oppoq, yetarli darajada qalin va yuzasi g‘adir-budir bo‘lishi zarur. U agar juda silliq bo‘lsa, sathida ranglar yetarli darajada tekis yotmaydi. Narsa va buyum tasvirlarini bo‘yash jarayonida umumiydan xususiyga yoki aksincha xususiydan umumiyga qarab boriladi, nihoyat ish yahlitlash bilan yakunlanadi.

Rassom uchun eng muhimi o'tkir nigoh, mohir qo'l, tinimsiz mehnat orqali akvarel bilan ishlash texnikasini mukammal egallashdir. Bunga tarixdan juda ko'plab misollar keltirishimiz mumkin.

Masalan: XV asr oxirida Uyg'onish davrining mashxur nemis rassomi A.Dyurer akvarelda juda ko'plab asarlar yaratgan. Go'zal va betakror tabiat manzaralari, hayvonoti dunyosi va o'simliklarni ajoyib qilib tasvirlash, shu mo'yqalam sohibining naqadar yuksak mahorat egasi bo'lganligini isbotidir.

Endi akvarel tush va ularni ishlatishda qo'llaniladigan bazi qurol va vositalar haqida to'xtalib o'tamiz.

1. **Akvarel** mo'yqalamda oson olinishi, suvda yaxshi eriydigan bo'lishi kerak. Akvarel boshqa bo'yoqlardan kog'ozga yupqa qatlam tarzida o'tishi tekis, silliq surkalishi, quyilib va bir joyga qatlam tarzida yig'ilib qolmasligi bilan ajralib turadi. Akvarelga ko'p vaqt suv tegmasa, haddan tashqari qotib ketib uni ishlatish qiyin bo'lib qoladi. Shuning uchun chinni idishlar va tyubiklardagi akvarelni qorong'u va salqin joylarda saqlash lozim. Agar tyubikdagi akvarel qotib qolsa, tyubikka shprints bilan suv yuborish yoki uni suvli idishda biror soat solib qo'yish tavsiya etiladi. «Leningrad» markali akvarel sifatli akvarellardan hisoblanadi va u plastmassa idishlarda ishlab chiqariladi. Unda bo'yoqlarning 24 xili mavjud bo'lib, plastmassadan tayyorlangan palitra ham joylashtirilgan.

2. **Tush** asosan yozish-chizish, bezak va boshqa ishlarda keng qo'llaniladi. Ularning xillari juda ko'p. Tushlar suyuq holda shisha idishlarda va taxtacha hamda qalamcha shaklida qattiq holatda ishlab chiqariladi.

Kerakli tushlar maxsus idishlarda suyultiriladi. Ulardan axromatik ranglarning har xil tushlari hosil qilinadi. Tushni juda quyuq ishlatilmaslik lozim. Ular etyudlar uchun mo'ljallangan bo'lib, 20-30 donasi kerakli o'lchamda bir-birlaridan ajratib olishda birorta uchi o'tkirroq asbobdan foydalaniladi. Orqasiga qo'yilgan kardon esa uni g'ijim bo'lishdan asraydi.

3. **Stirator** bittasi kattaroq ikkinchisi kichikroq o'lchamga ega bo'lgan va bir-birini ichiga kirib turadigan ikkita ramkadan iborat ishlatishda bo'lib, qog'oz ikkala ramka orasiga qo'yilib siqib jipslashtiriladi. Stirator bundan tashqari ramka va planshetdan iborat bo'lishi ham mumkin. Bunday stirator ikki oyoqli qilib yasaladi. Qog'oz stiratorga tortilganidan keyin uni tizza ustiga qo'ygan holda ishlatish mumkin. Shuningdek stirator oyoqsiz holda ishlatilganda esa maxsus tutkichga o'rnatiladi. Stiratorga tortiladigan qog'oz oldin suvga xo'llab olinadi. Qog'ozni xo'llash uchun yumshoq lattadan foydalaniladi. Burchaklarida 1.5-2 smgacha joy quruq qoldiriladi. Qog'ozni ikki tomoni ham xuddi shu zaylda qo'llaniladi, so'ng ramkaga tortilgan qog'oz o'zgarmas temperaturali joyga qo'yib quritiladi. Stirator asliga qarab rasm ishlashda va manzaralarni tasvirlashda qulaydir.

4. **Planshet** tasviriy sanat darslarida keng qo'llaniladi. Planshetga qog'oz tortishida uning to'rttala tomoni 1,5-2sm buklanadi. Qog'ozning teskari tomoni jiqqa xo'l latta suvini o'ziga shishib olguncha surtiladi. Chetga qayrilgan burchaklari eng quruqligicha qoldiriladi. So'ngra qog'ozning old tomoni aylantirib qo'yiladi va u ham chetki tomonlariga tekkizmasdan xo'llanadi. Undan keyin burchagidan bir tomoni, so'ngra qarama- qarshi turgan tomoni bosib tortilishi lozim. Qolgan ikki tomoni ham xuddi shunday deogonal bo'yicha yelimlanadi yoki knopka bilan qistiriladi. Qirralari esa barmoq yordamida tekis qilib yopishtirib chiqiladi. Yelimlangan tomonlarida hech qanday tirishgan va qavariq joylar bo'lmasligi lozim. Ho'l planshet mo'tadil temperaturali joyga qo'yib quritiladi. Shundagina u ishga yaroqli bo'ladi.

5. **Yig'ma qopchiq** ham etyudlar ishlashda ekskursiyalarga chiqqanda juda azqotadi. Uni brezent matodan ixchamgina qilib tikib olish mumkin, kerakli jixozlarni yig'ma qopchiqqa tartib bilan joylashtirish lozim. Uning yuqori qismiga tasmalar tikib qog'ozni mahkamlab qo'yish kerak. Pastki qismiga esa har-xil o'lchamdagi cho'ntaklar tikiladi. Chuntaklarga esa maxsus idish, katta akvarel vaxokazolar solib olinadi. Materialni tikayotganda orasiga kardon bo'laklarini kerakli o'lchamlarda qo'yish tavsiya etiladi. Qo'yilgan kardon bo'laklar qog'ozlarni buklanib qolishidan saqlaydi.

6. **Mo'yqalamlar.** Akvarel bilan ishlayotganda foydalanish lozim, mo'yqalamlar ikki xil bo'lib, ularning bir xillari moyli bo'yoqlarga, boshqa xillari esa akvarel bo'yoqlarga mo'ljallangan (elimlash uchun mujjallangan mo'yqalamlar uchun mustasno). Ularni ko'rinishiga qarab quyidagicha fikrlash mumkin. Yalpoq (moyli bo'yoqlar uchun mo'ljallangan mo'yqalamlar kurakcha va dumaloq shaklda bo'ladi). Akvarel uchun ishlatiladigan mo'yqalamlar yumaloq bo'lib, uch tomonga qarab ingichkalashib boradi va bu juda mayda detallarni ishlash uchun qulaylik tug'diradi. Rasm ishlaganda qog'ozni yuzi buzilmaslik uchun bu mo'yqalamlar maxsus yumshoq yunglardan yasaladi. Akvarel mo'yqalamning kolonok, olmaxon, suvsar yungidan yasalgan turlari mavjud.

Mo'yqalamning ishga yaroqli yoki yaroqsizligini bilish uchun uni toza suvga tiqib olib silkitish kerak. Agar shunga mo'yqalamning uchlari to'planib qolsa-yaroqli, to'zib tursa-yaroqsiz bo'ladi. Mo'yqalamning bandida nomeri bo'ladi. Bu nomer mo'yqalam mo'y qismini kengligini bildiradi. Nomerdagi sonlar ortib borishi bilan yung qismining kengligi ham ortib boradi. Shuning uchun akvarel bilan ishlashda mo'yqalamning kerakli nomeri yuzaning katta yoki kichikligiga qarab tanlanadi. Tasviriy sanat darslarida ingichka mo'yqalamlardan kam foydalaniladi, chunki ular bilan katta rasmlarni bo'yab bulmaydi. Bu xildagi mo'yqalamlar ko'proq mayda detallarni hamda dekorativ bezash ishldaridagi naqshlarni bo'yashda ishlatiladi. Yuqorida nomeri ko'rsatilgan yo'gon xajmdagi mo'yqalam bilan katta rasmlarni bo'yash mumkin, uning ingichka uchi esa suratning mayda detallarini ishlash imkonini beradi. Umuman

olganda butun ishni bitta mo'yqalamda bajara olish imkoni tug'iladi. Shunda ko'z hamda qo'l harakati uyg'unlashadi. Tajribali rassomlar ko'pincha ikki tomonida ham mo'yi bo'lgan mo'yqalamlardan foydalanadilar. Ularga maxsus buyurtma berib tayyorlatish mumkin.

Bulardan tashqari har-xil o'lchamdagi kurakchasimon, yalpoq mo'yqalamlar ham ishlatiladi. Endi mo'yqalamlarni ishlatishning bir qator usullari haqida gapirib o'tamiz. To'g'rirog'i, bu usullar, tavsiya etilayotgan yo'llanma bo'lib, ular umumiy qoida tarzda qo'llanilmaydi. Chunki ba'zi mo'yqalamni boshqacharoq vaziyatda ishlatishga to'g'ri kelib qoladi. Bordiyu mo'yqalam bilan keng yuzalarni berkitishga to'g'ri kelsa, uni burchak ostidan ushlash hamda ishni qog'ozning tepa qismidan uzib-uzib bo'yoq berishdan boshlash zarur. Bunda mo'yqalam qog'ozning chap tomonidan pastka va ayni vaqtida o'ng tomonga qaratib tez-tez harakatlantiriladi. Agar tirnoq bo'yash kerak bo'lsa, mo'yqalam tik ushlanadi, hamda ohistagina qog'oz bo'ylab yurgiziladi.

Kuchli mazok xosil qilish (uzib-uzib bo'yoq berish) uchun mo'yqalam kerakli joyga qattiqroq bosiladi va darhol ko'tarib olinadi. Oqib ketayotgan bo'yoq esa toza mo'yqalamga shimdirib olinadi. Xomaki rasm ishlashda kerakli bo'yoqni o'z ichida birdaniga quyish aloxida mahorat talab qilinadi. Lekin mo'yqalam qog'ozga oxirigacha bosib yuborilsa, hamma bo'yoq birdaniga oqib tushib ketishi mumkin.

Qo'yilgan mazoklarni harakterli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mo'yqalamlarni ishlatayotganda ayniqsa uning mo'y qismi tez ishdan chiqishini unutmaslik kerak. Bo'yoq olinayotganda mo'yqalamni haddan tashqari ko'p ishqalash tavsiya etilmaydi, sababi mo'y qismi tez to'kilib ketadi. Bunda mo'yqalam bo'yoq ustida oldinga va orqaga hamda chapga va o'nga tomon tez-tez yengil-engil yurgiziladi. Bir marta bo'yoq olinganidan so'ng, ikkinchi olishga mo'yqalam dastavval tozalab yuviladi va latta bilan siqib tashlanadi. Toza suvga botirib olinganidan keyingina navbatdagi bo'yoq olinadi.

Rangtasvir texnikasini egallash.

Talabalar birinchi bosqichdanoq akvarel texnikasida ishlashni o'qituvchi rahbarligida boshlang'ich yarimyillik davridayoq o'rganishni boshlaydilar. Kasb-xunar kollejlari va oliygoh talabarlari o'quv dasturlarida talabalardan rangshunoslikni ilmiy negizlarini egallashni, rangtasvirda ishlatiladigan ashyolarning hususiyatlari va ularni samarali ishlatish yo'llarini chuqur bilishni talab etadi. Shuning uchun o'quv dasturlari amaliy mashg'ulotlar bilan bir qatorda nazariy bilimlarni, ijodiy imtixonlar vaqtida esa amaliy vazifalar ko'rigidan tashqari, og'zaki so'rovni ham nazarda tutadi.

Rangtasvir nazariyasi va metodlarini o'rganishda maqsad va vazifalarni oldinga qo'yib, mukammal o'rganib borish lozim. Talabalar auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari uyda ham bir qancha vazifalarni mustaqil bajarishlari lozim bo'ladi.

Natyurmortning qalamtasvirini bajarishda qo'yiladigan talablar, narsalarning xajmli shaklini tasvirlashdan iborat bo'lsa, bo'yoqlar bilan tasvirlashda esa, uning qanday materialdan ishlanganligi, hajmdorlik, yorug'-soya, tusi ham rang vositalari orqali ifodalanadi. Qalamtasvirda biz narsa va buyumlarni faqat och-to'qligini ko'rsata olar edik, rangtasvirda esa ranglar butun majmuasi va barcha sifatlari bilan namoyon bo'ladi. Ya'ni bo'yoqlar bilan tasvirlashda narsa-buyumlar o'zining aniq ranggi bilan emas, balki atrofidagi boshqa turli ranglar bilan bog'lanishda ko'zga ko'ringan ranggi ifodalanadi. Ko'zimiz ko'ra oladigan tabiatdagi barcha ranglarni shartli ravishda ikkita axromatik va xromatik ranglarga bo'linishi va ularga qaysi ranglar kirishini biz yuqorida aytib o'tdik. Ranglarni tabiiyligini tasvirda bajarish ancha qiyin ish. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo'r mushoxada orqali erishish mumkin.

Natyurmortdagi narsalarning och-to'qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o'rganish uchun natyurmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keyinchalik qiyin natyurmortlarning rangli tasvirini bajarishga o'tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangli bo'yoq bilan ishlash usuli **grizayl** deb ataladi. Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o'tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'lib, unda mo'yqalamni ishlatish yo'llari va akvarel bo'yoqlarining xususiyatlarini o'rganish uchun imkoniyat yaratiladi. Bu usul bilan bir nechta natyurmortlarni tasvirlab o'rgangandan so'ng, barcha rang xillari bilan natyurmort rangtasvirini ishlashga o'tish mumkin.

Rangtasvir ashyolari.

Talabalar o'quv vazifalarini samarali bajarishlari uchun quyidagi rangtasvir ashyolari zarur bo'ladi:

45X60 o'lchamli maxsus faner (planshet), 24 yoki 16 xillik akvarel bo'yoqlari (asosan "Sank-Peterburg" fabrikasida ishlab chiqilgan), knopkalar, turli o'lchamdagi kistlar hamda ish vaqtida foydalanish uchun politra va boshqalar.

Qog'ozning yuzi g'adir-budir bo'lsa, bo'yoq unga singib, quriganda yelimi qotishi natijasida mustahkamlanadi. Qog'ozning chekkalari buklanib ketmasligi uchun maxsus fanerga mahkamlab tortiladi. Buning uchun qog'oz planshetdan 1,-2 sm kattaroq olinib, uning yuzasi avaylab xo'llanadi (buklangan yeridan tashqari), so'nginra chekkalariga yelim surtib, planshetga yopishtiriladi. Shu jarayonda barmoqlar bilan qog'ozni asta sidirib, tirishgan va ko'tarilib qolgan joylarini tekislab borish kerak. Qog'oz tekis yopishtirilgach, planshetni yotiq holda qo'yib quritiladi. Uni issiq joyga yoki isitish asboblari yoniga qo'yish noto'g'ri. Chunki qog'oz yuzasida g'ijimlar, darzlar paydo bo'lishi mumkin.

Qog'ozni asos taglikka yelimlamasdan "stirator" yordamida tayanch qilib tortib qo'ysa ham bo'ladi. Stirator planshetdan sal kattaroq romcha bo'lib, xo'llangan qog'oz ularning orasiga qotirib qo'yiladi. Qurigach, u tarang tortilib qoladi. Bu haqida biz yuqorida to'liq aytib o'tdik.

1-2. Naturadagi rangtasvir jarayoni va natyurmort ishlashning o'ziga xosliklari

Naturadan rangda tasvirlash jarayoni o'z qonun-qoidalariga ega. Ishning boshlanish qismida nimalar qilish, o'rtasida qaysi masalalarni hal etish va ish oxirlab qolganida uni qanday yakunlash kerakligini bilish zarurdir. :

- umumiy tus va rang holatlari va natura bo'yoqlarining bir-biriga yaqinligidagi tus va rang munosabatlarini topa bilish;
- katta rang – tusli munosabatlar chegarasidagi rang-tuslarning “cho'zilishi”, alohida buyumlarni xajmli shakllarini batafsil rangli qayta ishlanishi.
- Butun tasvirning umumiyliigi, yaxlitligi hamda kompozitsiya markazini ko'rsata bilish.

Bu masalalarning har biri nima bilan yakunlanishini ketma-ketlikda ko'rib chiqamiz.

Tasvirlashni to'liq rangtasvirli qurilishi, naturaning asosiy qismlari orasidagi tus va ranglar munosabatlarini aniq va to'g'ri ko'rsatilishi bilan aniqlanadi. Natyurmortda ular – fon, natura qo'yilmasidagi stol yuzasi va buyumlar xisoblanadi. Manzarada esa – osmon oralig'idagi yer yuzasi va daryodagi suv, oldingi, o'rta va orqa oraliqdagi ko'rinishlardir. Agarda bu asosiy rang-tuslar munosabati (farqlari) “etyud”da noto'g'ri tasvirlansa, manzaradagi ob'ektlar yoki buyumlar shaklidagi rang-tuslari, reflekslar va jism bo'laklari ustida har qancha berilib ishlanmasin, yuqori saviyali mukammal rangtasvirga erishib bo'lmaydi. Qalamtasvirni ishlashda ham taxliliy masala bajariladi: dastlab buyumning “konstruktiv” – ichki qurilishi, nisbatlari, yaxlit umumiy shakli topiladi. Rassom shunday sharoitda aslo bu masaladan chekinmaydi, naturani umumiy va yaxlit ko'radi. N.N.Ge bejiz rassomlarni ogohlantirmagan: “Naturadagi bosh qismlarni belgilab, nisbatlarni tekshirish uchun darhol asosiy soya va yorug'likni umumiy sinchiklab o'rganib chiqamiz va har doim, har vaqt tasvirni boshidan oxirigacha umumlashtirgan holda chizamiz hamda mayda bo'laklarga ohista kirishamiz. Mana sizlarga chizishning siri”- degan edi u.

Rangtasvirda ham ish boshlashdan avval naturadagi umumiy rang munosabatlarini diqqat bilan o'rganib chiqish lozim. Shuning uchun bu masalada 5-10 minut vaqt sarflab, naturaning umumiy rang munosabatlarini tushunish kerak: eng och va eng to'q (zich) dog'qaerda, tusi va rang kuchi bo'yicha asosiy farqlar (to'yinganligi) qanday ekanligini topish kerak. Masalan, natyurmortdagi sariq olmalar fondagi sariq mato bilan solishtirilsa, olmalar matodan ochroq, ularning sariq tusi sariq matoga nisbatan yorqinroq (to'yingan) ko'rinadi. Rangning uch xil o'ziga hosligi bo'yicha natura qo'yilmasidagi buyumlarning asosiy rang xususiyatliligi mavjud.

Ob'ektdagi umumiylikni topilishi rassomni naturadagi ikkinchi darajali belgilar, uning mayda bo'laklariga, koloritli masalaga mustasno holda e'tibor berishdan, umumiy tus va rang

holatini, asosiy tus va rang munosabatlarini paydo qilishdan chalg'itishga harakat qiladi. Shunday qilib naturaning ranglar qonuniyatlarida ham, asosiyga erishiladi, etyudning keyingi mayda detalli ishlariga poydevor yaratiladi.

Rang munosabatlarini avvalo eng och va intensiv ranglarni qidirishdan boshlash kerak, so'ng eng to'qini topiladi, qolganlarini esa shularga nisbatan aniqlash ma'qul bo'ladi. Keyingi tuslarga biroz to'qroq va biroz intensiv bo'lganlar va boshqalar kiradi. Murakkab kulrang tuslar oxirida beriladi.

Dastlabki va yakunlovchi tuslarni har doim ham eng och va eng to'q hamda to'yingan qilib olinmaydi. Qo'yilmadagi eng och joy har doim ham oq bo'lavermaydi, eng to'q joy esa qora bo'lmaydi. Kuchli to'yingan yorqin ranglar ham kamdan-kam uchraydi. Natyurmortdagi qizil pomidorni odatda yorqinligi bo'yicha toza qirmizi rangda emas, balki uni 50% ga sustroq tusda berish ma'qul. Hattoki bahorgi o't - o'lanlarni tasvirlashda juda ehtiyotkor bo'lish lozim. Uning yorqinligini shunday kuchaytirib tasvirlash mumkinki, natijada u o'zining tabiiy ko'rinishidan boshqacha bo'lib chiqib qoladi. Shuning uchun ishga kirishishdan avval umumiy tus va ranglar kuchini aniqlab olish kerak: munosabatlarni qanday bo'yoqlar yig'indisida bajarish – och yoki to'q, yorqinlikning (to'yinganlik) qanday chegarasida bo'lishini ham aniqlash muhim. Qisqa qilib aytganda, naturaning umumiy tus va rang holatini bilish kerak. Bunday holatni saqlab qolish uchun balki ranglar munosabatini chegaralangan bo'yoqlarda tasvirlashga to'g'ri keladi. Ishni eng och, to'q va yorqin tuslardan boshlaganda politradagi barcha ranglardan, shu bilan birga eng yorqin va keskin bo'yoqlardan foydalanish shart emas.

Yorug'-soya va rang munosabatlarini aniqlashda umumiydan hususiyga qarab borish lozim. Avvalo asosiy ob'ekt oralig'idagi tus farqlarini topish muhim : natyurmortda, masalan, stol yuzasi va fon oralig'idagi ko'za, choynak va ko'zaga tushayotgan yorug'lik va boshqalar. Manzarani tasvirlashda avvalo osmon va yerning alohida jismlarini bir-biriga va ularning yaxlitligida bo'lgan rang munosabatlarida aniqlash kerak. Inson qomati tasviri yoki portret ham xuddi shu tariqa bajariladi.

Rassomlarning amaliy tajribasida shunday jumlar mavjud : “katta yorug'lik” , “katta soya” , “katta shakl” , “katta ranglar munosabati” . Bulardan maqsad natura ob'ektini yaxlit ko'rish va ularni barqaror qilib tasvirlashdir.

Naturani yaxlit idrok etganda, yorug'lik tikka ta'sir etayotgan joydagi narsalar yagona bir qismni tashkil etadi va undagi dog'lar kuchliligi bo'yicha soya qismdagiga teng kela olmaydi. Xuddi shularni shaxsiy va tushayotgan soyalarga moslash mumkin: ular tus bo'yicha yarimsoya bilan yaxshi chiqishadi, yarimsoya esa tasvirning yorug'lik qismlaridagi kuchga teng kela olmaydi. Soyadagi refleks yarimsoyadan och bo'la olmaydi, ammo shaxsiy soyaning umumiy

tusiga bo'ysunadi. Ob'ektdagi ushbu katta shakllar yoki buyumlar guruhi tusi va rangining to'g'ri saqlanishi tasvirga yaxlitlik va yoritilishining to'g'ri bo'lishiga turtki bo'ladi.

Umumiy ranglar munosabati va navbatdagi ishning davomi naturaga hos koloritni hisobga olgan holda borishi kerak. Naturadan kam ishlagan, tajribasiz rassomlar u yoki bu natyurmort ranglavha etyudini, manzarani yoki portretni tasvirlayotganda har doim ham undagi yaxlitlik va bo'yoqlar birligini muvaffaqiyatli bajara olishmaydi. Naturadan ishlash jarayonida har bir aniq holatda koloritni tushunib yetish, tusli va rangli holat xususiyatini ko'rsata bilishlari zarur. Hamma gap natura bo'yoqlaridagi umumiy tus, rang holati va kolorit birligini ko'rish va tushunib yetishdadir.

Yirik plandagi tus munosabatlarini aniqlab olgandan so'ng, yorug'-soya qismlarini modellashtirishga ya'ni, har bir buyumning yorug'-soyasi, yarim soya, shaxsiy hamda tushayotgan soyalarini topgan holda xajmli shaklini rang-barang qilib tasvirlashga o'tish mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, buyumlarning ustki qismi ham rang-tusi bo'yicha, ham yorug'ligi bo'yicha, ham to'yinganligi bo'yicha ham tushayotgan yorug'lik nurining oraliq masofasiga, sinadi, burchagiga hamda atrofida o'rab turgan buyumlarning reflekslariga va kontrast munosabatlariga bog'liq holda o'zgaradi. Yorug'likka, yarim soyaga yoki soyaga yonma-yon turgan qandaydir ikkita yuza jismlaridagi narsalarda bir xil yoritilish sharoiti mavjud emas. Buyumni barcha qismini palitrada topilgan rang bilan unga och yoki to'q rangni qo'shib ishlash mumkin emas. Buyumning har bir bo'lagi uchun yangi va yana yangi bo'yoq qorishmalarini topish kerak. Odatda lokal (buyum) rangi yarim soyada sezilarliroq, chunki yarim soya yorug'lik manbaining asosiy va aks etayotgan tomonlaridan ancha sust ta'sir etadi. Buyumning xajmli shaklini jozibadorligi va natura qo'yilmasining yaxlitligini to'g'ri anglash uchun, issiq tuslar bilan yonma-yon aralash kontrast kuchida inson ko'zi sovuq rangni ko'radi. Bir rang boshqasiga qo'shimcha bo'lgan rangni his qiladi. Buning natijasida naturadagi sovuq ranglarga issiq ranglar hamisha yo'ldoshdir. Agar biz buyumning sirtida zarg'aldoq rangni ko'rsak, yonida esa albatta havo rangni sezamiz.

Issiq va sovuq tuslar tasvir oghangdorligini oshiradi, naturadagi tabiiy ko'rinishni naomyon etadi.

Buyumning katta shaklini modellashtirayotib, mayda bo'laklarni chiza turib, shuni yodda tutish kerakki, katta shaklning ham yoritilgan, ham soyadagi yuzasida joylashgan ko'plab kichik shakllarda aniqlanadigan tusni oshirib yubormaslik kerak. Yorug'likda yoki soyada joylashgan mayda shakl tuslarining yaqinligini ilg'ab olish uchun, ish jarayonida atrof - muhitga bog'liq bo'lmagan buyumlarga e'tibor berish shart emas. Aytib o'tganimizdek, buyumlarni yaxlit ko'rib, doimo ularni o'zaro solishtirib turish zarur. Buyumning och qismini tasvirlay turib, qaysi nuqtada u yorug'ligi va rangining eng quyuqligi va qaerda kuchliroq namoyon bo'lishini, so'ngra

esa xajmli shaklning qolgan qismida topilgan tus bilan taqqoslab aniqlash kerak. Eslatib o'tamiz, ranglarni uch xususiyat bo'yicha taqqoslaymiz: yorug'ligi, rang tusi va to'yinganligi. Agar biror bir rang yorug'ligi bo'yicha to'g'ri topilib, boshqa xususiyatlari aniq bo'lmasa, bu rangni to'g'ri deb bo'lmaydi – munosabatlar rang tusi va to'yinganligi bo'yicha ham aniqlangan bo'lishi kerak. Buyumlarni solishtirib, o'xshashligini yoki ularning orasidagi farqlarini aniqlash shunday holatda yengillashadiki, agar havo rang buyumni boshqa bir tusi o'zgacharoq buyum bilan solishtirsak. Bunday taqqoslash bizni sinchiklab qarashimizni charxlaydi hamda ulardagi rang tusini aniq ko'rishga ko'mak beradi.

Buyumlarni ranggi bo'yicha taqqoslashda yana bir holatni hisobga olish zarur. Ketma-ketlikdagi rang kontrasti tufayli, kulrangning nozik tusi uni nima bilan qiyoslashimizga bog'liq bo'lib, goh issiq, goh sovuq bo'lgan holda tuyuladi. Agar kulrangni qizil rang bilan solishtirsak, u sovuq tusda, havo rang bilan taqqoslasak, issiq tusda ko'rinadi. Shu sababli buyumning nozik tusini aniqlashda xolis rangni xolis bilan, issiqni issiq bilan, sovuqni sovuq bilan, och rangni och bilan, to'q rangni to'q bilan o'zaro solishtirish kerak.

Tasvirlanayotgan buyumlarni nafaqat asosiy yuqorida qayd etilgan rangning uchta xususiyati bo'yicha, balki tashqi ko'rinishining aniqligi bo'yicha ham taqqoslash zarur. Tasvirlanayotgan buyumlarning chegarasi hamma joyda ham bir xil aniq ko'rinmaydi. Bir xil joyda buyumning silueti yaxshi ko'rinadi, boshqa joyda esa fon bilan birikib ketadi. Buyumdan tushayotgan soyalar chegarasi ham barcha yerda bir xil ko'rinmaydi. Ish jarayonida doimo munosabatlar bilan fikrlash kerak: matoda tasvirlanayotgan bir necha buyumlarni naturadagi xuddi shu guruh buyumlari bilan qiyoslab borish maqsadga muvofiq. Faraz qilamiz, birinchi ko'rinishdagi buyumlar guruhining ranglari ikkinchi ko'rinishdagi buyumlar ranggiga nisbatan juda ham yorqin va to'q tusdadir. Ularning naturadagi bu farqlarini sezgach, palitrada ranglarni alohida bitta, bitta emas, balki birdaniga bir necha rangni munosabatlarda tanlash zarurdir.

Havaskor rassom manzara lavhani tasvirleyotganda old ko'rinishidan boshlashi ma'qul. Agar rang qatlamlarini orqa ko'rinishdan qo'ya boshlasa, uning rang va tus kuchlarini oshirib yuborib, birinchi ko'rinishni bo'rttirib ko'rsatishga bo'yoqlarning kuchi yetmaydi.

Matoning to'liq yuzasi bo'yoqlar bilan butkul qoplanib, munosabatlar to'g'ri olinmaguncha haqiqiy jarangdor bo'yoqlarni, yorug'lik kuchini va tasvirlanayotgan buyumlar moddiyligini his qilib bo'lmaydi. Palitradagi yorqin bo'yoq - hali matodagi yorqin tus emas. Buyumlarning yoritilishi va materialligi munosabatlarning to'g'ri olinishiga bog'liq, aks holda yon tarafdagi tuslar to'g'ri topilmasa, qaysidir bir rangning jarangdorligiga erishib bo'lmaydi.

Rangtasvir ishlash jarayonida ranglar munosabatini to'g'ri aniqlash bilan birga, shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, biz faqat oddiy rang dog'lari bilan emas, balki aniq bir shakl ustida ham ish olib borayapmiz. Ranglar munosabatini izlashdan maqsad, to'g'ri topilgan rang

tuslari bilan naturani , uning xajmli shaklini to'g'ri topish demakdir. Agar rang buyumning fazoviy joylashuvi, materialligi va aniq shaklini ifoda etmas ekan, u tasvirda o'z ma'nosini yo'qotadi. Och va to'q, rangli va rangsiz bo'yoq surtmalari ma'lum bir buyum shakliga va ob'ektga tegishli bo'lsagina, materiallik, ranglar uyg'unligi va koloritni yaratadi.

Manzaraning fazoviy kengligini masalan, faqat havo perespektivasi tufayli ranglar o'zgarishini ko'rsatib beruvchi rangli dog'lar emas, balki yer yuzasida joylashgan narsalar va ob'ektlar : daraxtlar, qurilishlar, to'g'ri to'rtburchakli va notekis maydonlarni o'lchamlari va chiziqlar aniqligi ranglarda o'zgarib, manzaraning fazoviy uzoqlashishini yaratadi. Tog'larni, masalan, ikkinchi va olis ko'rinishda umumiy rang dog'larida ifoda etish mumkin emas. Rang bilan ularning rel'efini va o'simliklar tuzilishini tasvirlash kerak.

Ishning yakunida natyurmort, manzara yoki portretning u yoki bu joylari kerakli yorqinlikni olmay qolgan bo'lishi mumkin yoki aksincha, haddan tashqari tusi va ranggi bo'yicha kuchli, umumiy rang tusidan "ajralib" ko'rinishi mumkin. Yoritilgan joylar tusi bo'yicha o'ta keskin bo'lib, qog'oz yoki mato yuzasidan "chiqib" ketishi mumkin. Ba'zan soyali joylar sezilarli mayda detallarga ega bo'lib, maydalashib ko'rinadi. Bu holatlarning hammasidan ham umumlashtirish masalasi hal etiladi: mayda bo'laklarning keskin chegaralari mayinlashtiriladi, buyumlarning rangdorligi kuchaytiriladi yoki xiralashtiriladi, keskin tuslar ochlashtiriladi yoki to'qlashtiriladi.

Umumlashtirish bosqichida naturaga yaxlitligicha qarash, hamma narsani birdaniga ko'rish ya'ni "tikilib qarash" kerak. Buyumlar guruhining barchasi tarqoq bo'lib tuyuladi, ammo shu paytda tus munosabatlarini , natura yaxlitligini tezroq tushunish mumkin. Navbatma-navbat naturaga ham , etyudga ham yaxlit qarash kerak, shunda qayerda qanday xatoga yo'l qo'yilganligini ilg'ab olish mumkin. Butunligicha, yaxlitligicha ko'ra olish qobiliyati, ishni umumiydan xususiyga qarab va undan yana umumlashtirishga tomon boriladi. Ish jarayonida yaxlit ko'rish – rangtasvirda ishlash mahoratining asosidir. Faqatgina shu malakaga ega bo'lgan rassom , naturani obrazli ko'ripnishini to'g'ri ifoda etishi, undagi asosiy va har bir bo'lakning o'z o'rnini topishini, ishning yakuniy darajasini hamda kompozitsiyaviy markazga bo'ysundirishni samarali bajara oladi.

Tasvirdagi qismlar yig'indisi yaxlitga teng emas, chunki yaxlitlik – bu qismlar yig'indisiga birlik, shu qismlarning bir-biriga bo'ysunganligi va jamlanganligi hisoblanadi. Akademik **Ye.A.Kibrik** tasvirlashning yaxlitligi haqida shunday yozgan : ***“Yaxlitlik qonuniga bo'ysunmasdan turib, naturadan na qalamda, na rangda tasvirlash mumkin emas. Shakl ham, rang ham o'z-o'zidan mavjud bo'lmaydi, faqat yaxlitlik qismi kabi yaxlitlikka nisbatan bo'ladi”.***

Shu o'rinda har bir bo'lajak rassom yoki tasviriy san'atni o'rganuvchi tasvirlash jarayonini

narsani o'ziga qarab chizishdan boshlashi, bundan ko'proq foydalanishi lozimligi hamda ushbu usul tasavvur qilish qobiliyatini o'stirishda samarali natijalarga olib kelishi haqida alohida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Narsani o'ziga qarab rasm chizish

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish o'tiladigan tasviriy san'at mashg'ulotlarining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Bu mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning narsa va xodisalarning kuzata bilish qobiliyatlari rivojlanadi, xotiradan va tafakkurdan rasm chizish malakalari ortadi, narsalarning fazodagi holatlarini aniqlay bilish, ularning hajmi, shakli, rangini, shu'la - soyasi yordamida tekislikda tasvirlash tushunchalari o'sib boradi (1-2-rasmlar). Kuzatish jarayonida o'quvchilar narsalarning o'lchovlarini o'zaro solishtiradilar, ular o'rtasidagi farqni taqqoslash yo'llari bilan topadilar.


Narsaning o'ziga qarab rasm chizish darslari ikki bosqichda olib boriladi.

Birinchi bosqich - bu hajmga ega bo'lmagan perespektiv qisqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydigan tekis narsalar, ya'ni daftarlar, bayroqcha, papka, o'quvchilar sumkasi, bolta, arra, har xil daraxtlar barglari va shunga o'xshash boshqa narsalar rasmini old tomondan, frontal holatda chizdiriladi.


Ikkinchi bosqichda - hajmli narsalar ya'ni Guldastali natyurmort, gul, hayvon, odam, uy anjomlari, qisqasi uch o'lchovga ega bo'lgan (eni, bo'yi, kengligi) geometrik shakllar va narsalarni chizdirishdan iboratdir.

O'quvchilar dars jarayonida birinchidan rasm chizishning asosini o'rgansalar, ikkinchidan ijodiy qobiliyatlari o'sib, estetik jihatdan tarbiyalanib boradilar, I-II guruhlarda o'ziga qarab rasm chiziladigan narsalarni to'g'ri ko'rishga asosiy shaklning bo'yini eniga nisbatan qog'oz yuziga kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashishini, bo'laklarning nisbiy o'lchovini ko'rsatib, ularning bir-biriga bog'liqligini, ranglarini aniqlash va ularning o'ziga xos xususiyatlariga alohida ahamiyat beriladi. I-II bosqichlardagi tasviriy san'at darslarida tik, yotiq, qiya chiziqlarini to'g'ri chiza olishni, kvadrat, to'g'ri burchakli, to'rtburchakli, uchburchak, doira va boshqalarni tassavur qila olish, to'g'ri chiza bilish hamda chiziqlarni ko'z chamasida teng bo'laklarga bo'lish qobiliyatlarini o'stirib borish kerak bo'ladi. Chizilgan rasmni akvarel guash, bo'yoqlari bilan bo'yashdan oldin uning rangini to'g'ri aniqlab olish va shu rang nomini to'g'ri aytishga o'quvchilarni o'rgatib borish talab etiladi.

Buning uchun o'qituvchi maxsus tayyorlangan rangli plyonka, oyna yoki



1-rasm



2-rasm

polietilin (sariq, qizil va zangori asosiy ranglar) materialлари orqali ko'rgazmali qurol tayyorlab o'quvchilar bilan savol-javob yordamida tanishib chiqsa yaxshi natijalarga erishadi. I-II-bosqichlarda chiziladigan narsaning maxsus nusxasi katta o'lchovda bo'lib, yaxshi ko'rinadigan joyga o'rnatiladi. Agar chizdiriladigan narsa mayda o'lchovda bo'lsa (har xil barglar, gullar va boshqalar), ularning har bir partaga bittadan tarqatib chiqish lozim bo'ladi.

O'quvchilar narsani o'ziga qarab rasm chizganlarida chiziladigan predmetlar ular oldida shunday qo'yilmog'i kerakki, unda perespektiv xodisalar aniq sezilmog'i kerak.

I-II boqichlarda ko'z bilan chamalanadigan perespektiv xodisalarining elementar qoidalari bilan tanishtiriladi. Hajmli narsalar qalam, akvarel, guash bo'yoqlari bilan yorug'-soya yordamida qanday ko'rinsa shunday tasvirlash vazifasi qo'yiladi.

Narsalar shaklini, yorug'lik manbaini hisobga olgan holda, ularning sirtida yorug' va soyalarning joylashuvi, narsa rangining yorug'lik tushishiga qarab o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlarni oladilar. Shu maqsadda sabzavot va Guldestali natyurmortni alohida va to'p

holdagi rasmlari chizdiriladi. Shuningdek, narsalarining shakli va nisbatlari proporsiyalarining o'zgarishini tasvirlay olish va ularning malakalarini o'stirish maqsadida oddiy geometrik shakllarni eslatadigan uy jihozlarining o'ziga qarab rasm chizadilar. To'g'ri to'rtburchak bilan chegaralangan narsalarni kengaytirish va o'stirish, hajmli narsalarni yorug'-soya yordamida tasvirlay olishni o'rgatish maqsadida o'quvchilarga nisbatan burchak ostida stolga qo'yilgan kitob, yashik, har xil qutilar, qush uyasi va geometrik shakllar rasmlari chizdiriladi.

Perespektiv xodisalarni ko'rgazma asosida o'quvchilarga o'rgatish dars jarayonida ancha qulaylik tug'diradi. Bunda san'at asarlari, sxemalar, plakatlari va modellardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan: Ch.Axmarovning "A.Navoiy" yoki Z.Inog'omovning "Choyga" asarlarini o'quvchilarga ko'rsatib, undagi perespektiv xodisalarni so'zlab berish mumkin.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish darslari tasviriy san'at predmeti kursida yakunlovchi bosqich hisoblanadi. Shuning uchun bu guruhlarda o'tiladigan darslar o'quvchilarni faqatgina nazariy mashg'ulotlarini boyitibgina qolmasdan, sistematik ravishda amaliy mashg'ulotlar o'tib ularning bilim malakalarini takomillashtirib bormoq ham kerak.

Perespektiva qoidasi va uni qo'llash usullarini faqat narsalarning o'ziga qarab rasmini chizish darslardagina emas, balki xayoldan, tasavvurdan rasm chizish dars jarayonida rassomlar asarlari haqida suxbat o'tkazish mashg'ulotlarida ham o'quvchilarga o'rgatib, tushuntira borish katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar chiziqli perpektiva bo'yicha surat tekisligi markaziy ko'rish nuri, maydoni haqida bilimlar oladilar va bir yoki undan ortiq kesishish nuqtasiga ega bo'lgan ufq chizig'i haqida olgan ma'lumotlarini yanada kengaytiradilar.

Narsaning o'ziga qarab rasm chizish jarayonida o'quvchilarga odam, hayvon shuningdek qushlar turkumining o'lchov nisbatlari, umumiy o'lchovlar: kalla, qo'l, oyoq, tos va boshqa plastik anatomiya haqida tushunchalar beriladi. Bundan tashqari faktura haqida ma'lumot berib boriladi, masalan, yuzi g'adir-budir bo'lgan narsalar bilan bir qatorda yuzasi yaltiroq bo'lgan shisha yoki sirli narsalarning shakli chiziladi. Shuningdek, chizilayotgan narsani o'ziga o'xshatib, xarakterini topa bilish bilan birga uning fakturasini ham ifoda etish talab etiladi.

Narsaning o'ziga qarab chizilgan tasvirida estetik tomonga ko'proq ahamiyat beriladi. Narsaning o'ziga qarab rasm chizish darsi jarayonida har bir o'qituvchi mavzuga oid tasviriy san'at asarlarini keltirib unda rassom qanday tasviriy vositalardan foydalanganligi, uning kompozitsiyasi, asardagi ranglarning moslashuvi haqida chizilayotgan narsalarni taqqoslab ko'rsatsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu borada o'quvchilar faqat narsaning o'ziga qarab rasm chizishdagi malakalari oshib bormasdan balki san'atimiz namoyondalari ishlagan san'at asarlari namunalarini bilan tanishib boradilar.

Masalan: biror sabzavot va Guldastali natyurmortdan tashkil topgan natyurmortni o'quvchilar chizayotgan bo'lsalar shunga mos yoki shu mavzuda bor narsalardan chizilgan O'zbekistonlik rassomlarning asarlaridan rangli reproduksiyalarni o'quvchilarga ko'rsatish samaralidir. Masalan, rassomlar A.Abdullaev E.M.Kovolevskiy, Z.Inog'omov, Yu.I.Yelizarov, M.Nabiev va boshqa rassomlarning asarlari reprodüksiyalari shunga qo'l kelishi mumkin. Reprodüksiyalar xayoldan va narsaning o'ziga qarab rasm ishlashda o'quvchilardan bevosita kuzatishni, predmetlar, ekran vositalari, kitobga ishlangan illyustratsiyalar, hujjatli materiallar, kompyuter texnikasi vositalaridan keng foydalanishni talab etadi va bular badiiy obrazni yaratishda o'quvchilarga katta yordam beradi.

Mavzu asosida rasm chizish

Mavzu asosida rasm chizish darslari tasviriy san'at fanining qiziqarli mashg'ulotlaridan biridir. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilar o'zlari bilgan ta'sirlangan voqea va xodisalarni xayoldan tasavvur qilib tasvirni ishlaydilar, badiiy adabiyotlarga illyustratsiyalar ishlaydilar. Ayniqsa o'quvchilarining kundalik hayotlaridan olingan mavzular, hayvonlarning hayotiga oid mavzular, adabiy asarlar (ertak, masal, hikoya, she'r) mavzuli rasm darslarining manbai bo'lib xizmat qiladi. Mavzu asosida tasvir ishlash darslarda bolalarning fantaziyasi va tasavvuri aktiv faoliyatga aylanadi. Mavzu asosida rasm chizish mashg'ulotlarining oldida turgan maqsad va vazifalar pedagogikaning ilmiy asoslari bilan belgilanadi.

Mavzuli rasm chizish bolalar yosh xususiyatini e'tiborga olgan holda eng sodda bo'lgan mavzular tavsiya etiladi. Bunda yil fasllarga mos keladigan mavzular "Tog'da kuz", "Kuzgi ishlar", "Yangi yil bayrami", "Qishki o'yinlar", "Maktab bog'ida", "Navro'z", "O'zbekiston mustaqilligi kuni", kabi.

Dastur asosida ancha murakkab ya'ni "Hosilni yig'ib-terib olish", "Maktab tajriba uchaskasida", "Bahor kelmoqda", "O'zbekistonda hosil bayrami", "Mustaqillik bayrami", "O'zbekiston konsitutsiyasi kuni", "Hayvonot bog'ida", "Respublikamiz mehmonlari" kabi va boshqa mavzular bilan bir qatorda, badiiy asarlarga, ertak, hikoya, masallariga illyustrativ rasmlar chizadilar.

Kompozitsiya yaratishning tayyorgarlik bosqichida o'quvchilar narsaga qarab rasm chizish perespektiva, rangshunoslikdan olgan bilimlardan keng foydalanishlari kerak. O'qituvchi vazifani tushuntirishda o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otishi lozim.

Birgina mavzuni turli xil mazmunda, har birini o'ziga xos ko'rinishda talqin qilgan holda tasvirlash mumkin. Masalan: "Bizning qurilishlarimiz" mavzusida o'quvchilar kuzatishlari asosida turli konstruksiyadagi zamonaviy o'yinlarni, har xil mashinalarni, turli ishlarni bajarayotgan odamlarni tasvirlashlari mumkin.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi mavzuni qanchalik keng va to'liq tushuntirsa, bolalar rasmlari shunchalik mazmundor va sifatli chiqadi. Har bir mavzuni chizishdan oldin o'quvchilar bilan ma'lum vaqtgacha ekskursiyalar o'tkazish, mavzu asosida ishlagan asarlarini tahlil qilish ham maqsadga muvofiqdir. Rasm chizish jarayonida chizish qiyin bo'lgan obrazlar, masalan, odam, hayvon, murakkab texnika va x.k.z ni chizish yo'llari haqida ma'lumot berish, sxematik tasvirini chizib ko'rsatish kerak.

II-BOB.

NATYURMORT ISHLASH USULLARI HAMDA NATYURMORTDA RANGLAR UYG'UNLIGI .

Biz ushbu bobda natyurmortning ishlanish usullari, unda nisbatlarning qanday o'rin egallashi to'g'risida kengroq fikr bildirib o'tamiz. Ma'lumki, natyurmortlar mustaqil va janrli suratlarda ham yordamchi vosita sifatida ham aks etadi.

Natyurmortlarda ma'lum bir davr , e'tiborga loyiq bo'lgan tarixiy voqealar tasvirlanishi mumkin. Buning sababi rassomning borliqqa, o'sha mamlakat xalqining turmush tarziga bo'lgan shaxsiy o'z munosabatida ifodalanadi. Natyurmortlarda ularni o'rab olgan borliqdagi narsalar o'rtasidagi uyg'unlik, hamoanglik, ularning materiali va shakllaridagi go'zalliklarni ko'rsatib berishdan iboratdir. Uni Yu. Yelizarovning "Tarvuzli natyurmort" nomli asrida ham ko'rish mumkin. O'quvchilar chizilayotgan natyurmortni yaxshilab kuzatishi, tahlil qilishi va quyidagi savollarga javob topishi lozim. Chizilayotgan natyurmortga e'tibor bergan holda natura qanday narsalardan tuzilgan? Natyurmortdagi narsalarning qaysilari oldinda va iqaysilari orqada joylashgan? Har bir buyum yoki natura qanday shaklda ko'rinadi? Natyurmortning umumiy balandligi kattami yoki enimi? Qanchalik nisbatta kattaligini aniqlash kerak. Natyurmortni tashkil qilayotgan narsalarning o'zidagi nisbatlar: eni kattami yoki bo'yi va qancha marotaba katta? Natyurmort joylashgan tekislikni orqa va oldingi qirralari naturalarning qayerlariga to'g'ri keladi? Natyurmortda yorug' - soyalar bormi? Yorug'lik qaysi tomondan tushmoqda? Refleks va blik'larni aniqlash zarur. Soyaning o'zini ham yaxshi kuzatish undagi ranglarni to'liq kuzatib ishlash kerak bo'ladi.

1.Refleks va blik deganda predmetning eng yaltiroq joyiga aytiladi. Refleks deb soya qismi atrofidagi rang va yorug'liklar ta'sirida xosil bo'lgan aks ta'sirga aytiladi.

Natyurmortni bosqichma bosqich chizib bitirib boriladi. Natyurmortni chizishdan avval uni qog'oz betida kompozitsion jihatidan to'g'ri belgilab olinadi. Bunda natyurmortning umumiy balandligi va umumiy eni nazarda tutiladi. Bu esa naturaning qog'oz betidagi o'lchovning to'g'ri bo'lishiga yordam beradi. Shuni ham hisobga olish lozim bo'ladi, natyurmortning eni katta ko'rinsa, qog'ozni eniga, bo'yi katta ko'rinsa, bo'yiga joylashtiriladi. Chunki natyurmortni yon tomonidan kuzatayotgan o'quvchilarga uni eni torroq, to'g'risidan kuzatayotganlarga kengroq ko'rinadi. Natyurmortni qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirib bo'lgandan keyin natyurmortdagi har bir narsani chizib chiqish lozim bo'ladi. Bunda asosiy e'tibor narsalarni o'lchamlariga, perespektiv qisqarishiga qaratiladi.

Natyurmort qalamda to'g'ri chizib olinganidan so'ng uni ranglash bosqichiga o'tiladi. Bunda natyurmortni umumiy holda yaxshi kuzatib olish zarur bo'ladi. So'ng natyurmortdagi har bir narsalarning ranggini kuzatib umumiy holda berib chiqiladi. Ulardagi ranglari bir-biriga urishi, o'zaro uyg'unligini xisobga olib ketiladi. Yorug'lik qaysi tomondan tushayotgani va qaysi tomoni soya ekanligini to'g'ri anglab issiq va sovuq ranglar o'yinini amalga oshiriladi. Oldinda turgan naturalarning ranglari orqadagi naturalar ranglariga nisbatan ochroq ko'rinishiga va atrofdagi ranglarning o'zaro ta'siriga etibor bergan holda ish amalga oshiriladi.

Natyurmortni ishlanish tartiblari biz bajarayotgan bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ishi xisoblangan "Guldastali natyurmort" natyurmortining bajarilishi tartibi misolida ikkinchi bobning ikkinchi qismida to'liq yoritib o'tilgan. Biz natyurmortni rangtasvirning jozibali va juda qiziqarli janri ekanligini bilamiz. Natyurmort janri xaqida qancha gapirmaylik shuncha ozlik qiladi. Bu janr rangtasvirning qiziqarli tomonlarini bizga ochib bera oladi va o'quvchilarda narsalar hajmini sezish qobiliyatini shakllantiradi. Shakl va xajm birliklarini anglagan holda ishlashni o'rgatadi. Quyida shu haqda hamda natyurmortni tuzish va uni tasvirlash usullari haqida fikr bildiramiz.

2.1 Natyurmort – rangtasvirning mustaqil janri sifatida. Natyurmort tuzish va uni tasvirlash usullari.

Natyurmort. Ma'lumki, natyurmort tasviriy san'atning mustaqil, asosiy va keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maktab tasviriy san'at darslarida ham, kollej va oily ta'lim darslarida ham eng ko'p chizganimiz bu – natyurmort va uning elementlaridir. Men yana natyurmortlarga murojaat qildim. Buning boisi esa, oddiy natyurmortni juda yoqtiraman. BMIda natyurmort chizish bilan birga natyurmort haqidagi nazariy bilimlarimiz ham aks etishi lozim. Shuning uchun quyida natyurmortning janr xususiyatlari xususida va natyurmortchi musavvirlar haqida fikr yuritaman. Ma'lumki, natyurmort fransuzcha so'zdan olingan bo'lib "jonsiz tabiat" degan ma'noni anglatadi. Natyurmort asosan dastgohli rassomlik (rangtashvir va grafika) da, qisman haykaltaroshlikda (asosan rel'efda) ishlatiladi. Maishiy asosidan ajratib olingan mayda

narsalarning muhimligi boshqa janrlarga nisbatan natyurmortda namoyon bo‘ladi. Odamlar hayotida ishlatiladigan buyum, narsalar, sabzavot va Guldastali natyurmort, asbob - uskunalar kabilarga o‘xshash namunalarning tasviri muayyan shaklda chizilishi mazkur janrga xos. Ma’lumki, har bir rassom tasviriy san’at sirlarini o‘rganishni natyurmort chizishdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, xarakterini o‘zlashtirish san’atning boshqa jihatlarini va turlarini o‘rganishdagi dastlabki saboqlardir. Natyurmortda tasvirlanayotgan (mustaqil aks ettirilayotgan yoki kartinalarda asar mazmunini boyitadigan va to‘ldiradigan) buyumlar o‘z egasining fe’l atvorini, qiziqishlarini yoritishga yoki buyumlarning shakli, rangi, fakturasi, tuzilishidagi ritmik, dinamik holatlarni ko‘rsatishga qaratilgan.

Natyurmort qadimgi Misrda devorga ishlangan freskolarda, ellinizm davri mozaikalarida Xitoyda (qush va gullar) kompozitsiya bo‘lagi sifatida ma’lum bo‘lgan. Yevropada XIX asrning oxiri XVII asrning boshlaridan mustaqil ahamiyatga ega bo‘ldi va keng tarqala boshladi. Natyurmortning eng taraqqiy etgan davri XVII asrlarga to‘g‘ri keldi. XVIII asrdan boshlab natyurmort atamasi qo‘llanila boshladi. Italyan rassomi M.Korovajo va uning izdoshlari natyurmortning keng tarqalishida muhim ro‘l o‘ynaydi; gul va Guldastali natyurmort, dengiz in’omi-baliq, qisqichbaqalar sevimli mavzuga aylandi. Gollandiya (B.K.Xeda, P.Kels va boshqalar), Flandriya (F.Speydors, Y.Feyd) Ispaniya (F.Surbaran) Fransiya (J.Shardenn) bu borada yuksak taraqqiyotga erishdi. XX asrlarda natyurmort realistik an’analarini Meksikada R.Ribera, R.Sikeyros, Italiyada R.Guttuzolar davom ettirdilar. Rossiyada natyurmort XVIII asrda paydo bo‘ldi. Ko‘zni aldaydigan “Xuddi o‘ziga o‘xshash” (aldamchi) rasmlar ishlandi (G.A.Teplov, P.G.Bogomolov). XIX asrning birinchi yarmida haqqoniylikka, borliqni o‘zidan go‘zallik topishga harakat qilindi. M.A.Vrubel, K.Karobin, I.Grobarlar shakl, faktura va bezakdorlik borasidagi yutuqlarga erishdilar.

O‘zbek tasviriy san’atida natyurmort usullari qadimgi davr san’atida (masalan, Afrosiyob devoriy rasmlarida – vazadagi meva), miniatura san’atida (masalan, K.Behzodning Shayboniyxon portretida tasvirlangan buyumlar siyohdon, qamchi va boshq) uchraydi. Natyurmortning haqiqiy shakllanishi va rivojlanishi XX asrning 30-50-yillariga to‘g‘ri keladi. Ayni shu davrda rassomlarning ijodida natyurmortning dastlabki namunalari paydo bo‘ldi. L.Nasriddinov (“Nonli natyurmort”), Sh.Xasanova (“xitoy chinnisi bilan ishlangan natyurmort”); M.Kazin, B.Rojdestbenskiy, V.Chorintsev, N.Kashina, Z.Kovalevskaya, O.Totevosyan, S.Abdullaev, V.Fadeev, Yu.Elizarov va boshqalar natyurmort janrida sermahsul ijod qildilar. 60-80-yillarda L.Salimjanova, Yu.Talkin, R.Choriev, V.Burmakin, G.Meltinovlar ijodida natyurmort keng o‘rin tutadi. Rassomlar R.Axmedov, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov va boshqalar natyurmortda samarali ijod qilib natyurmortning taraqqiyotini ta’minladilar. Bugungi kunda ham natyurmort tasviriy san’atning mustaqil janri sifatida gurkirab rivojlanmoqda.

Yuqorida men natyurmort atamasi, uning lugʻaviy maʼnosi, natyurmortning yaratilish tarixi va natyurmortchi musavvirlar xususida oʻz fikr-mulohazalarini bildirdim. Quyida, yani ikkinchi boʻlimda natyurmort tuzish va uni tasvirlash yoʻllari haqida soʻz boradi.

Natyurmort tuzish va uni tasvirlash usullari.


Bitiruv malakaviy ishimning mavzusi aynan natyurmort ishlashga bagʻishlaganligi bois, natyurmort tuzishdan tortib uni tasvirlashgacha boʻlgan jarayonlar xususida fikr yuritishim lozim deb oʻylayman. Maʼlumki, natyurmortda asosiy talablardan biri narsa, oʻlcham, rang va tus jihatdan ajralib turish hamda surat tekisligining markaziga yaqin joyga qoʻyilishidir. Bu surat mazmunini ochishga soʻz boshlovchi vazifasini oʻtaydi, kompozitsiyaning markazini boʻrtirib koʻrsatib turadi. Lekin u albatta har safar surat tekisligining oʻrtasida turish shart emas, negaki unda postanovka (qoʻyilma) zerikarli chiqishi mumkin. Koʻpincha rassomlar asosiy predmetni ataylab geometrik markazdan sal silkitib qoʻyadilar muvozanatni saqlash uchun qarama-qarshi tomonda rangi va och-toʻqligi unga zid boʻlgan predmet oladilar. Taniqli natyurmortchi rassomlar Sezon, Shorden, Xrukpiylar bu usuldan foydalanganlar.

Bir xil narsalardan bir necha koʻrinishdagi natyurmortlar tuzish mumkin, lekin har gal ham hajmlarning katta-kichikligi va boʻlaklarning och-toʻqligi oʻrtasidagi muvozanat saqlanib qolishi kerak. Bitta natyurmortda bir necha teng ahamiyatli kompozitsion markaz boʻlmaydi, unda natyurmortning butunligiga putur yetadi. Har vaqt natyurmortdagi narsalar oʻrtasida uzviy bogʻlanish boʻlsa, shu bilan birga ulardan foydalangan yoki foydalanadigan inson bilvosita yaqqol sezilib tursa u maʼnodor tuyuladi (3-rasm). Natyurmortni oʻrnatish vaqtida predmetlarni bir necha marta qoʻyib koʻrish, ular birgalikda qanday koʻrinishini sinchiklab kuzatish agar maʼqul boʻlsa chizishni boshlash, maʼqul boʻlmasa yana qayta-qayta bu ishni takrorlash va yaxlitlik paydo boʻlguncha davom ettirish kerak.

Natyurmortning muhim tomonlaridan biri tasvirlanayotgan narsalarning fazoviy joylanishidir. Postanovkaga kiradigan narsalarning kattasi orqaroqda, maydalari oldinroqda biri ikkinchisini bir oz berkitib turadigan qilib qoʻyiladi (4-rasm). Ammo narsalarning tubi qisman boʻlsa ham koʻrinib turgani maʼqul.



3-rasm



4-rasm

Shunda ularning o‘zaro joylashuvini tasvirlash oson bo‘ladi. Natyurmortdagi narsalarni mazmunan bir-biriga bog‘lash maqsadida unga cho‘ziqroq narsa kiritiladi. Surat tekisligining

asosidan kompozitsiya markaziga qaratib qo'yilgan vaza, gullar to'plami, mo'yqalam va xokazolar surat mazmunini ochishga yordam beradigan "kalit" bo'lib tomoshabin nigohini kompozitsiya markaziga yo'naltiradi. Natyurmort murakkab va ko'p buyumli bo'lgan taqdirda eng ahamiyatli narsa ikkinchi planda joylashtiriladi. Natyurmortning fazoviy holatini yaqqolroq tasvirlash uchun birinchi planda uncha katta bo'lmagan, ammo yorqin narsa qo'yiladi. Natyurmortning ufq tekisligiga nisbatan qanday joylanishi ham katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, ko'z balandligi pastroqqa qo'yilgan natyurmort yopiq predmet tekisligida to'la-to'kis ko'rinib turadi. Narsalarning asoslari ularning o'zaro joylashishi yaqqol ko'rinadi va tasvirlash uchun qulay bo'ladi. Masalan, vaza va gullarni shunday joylashtirishimiz kerakki ular ko'rish maydonida muvozanatli holatda ko'rinsing. Alohida buyumlarni o'z o'rniga qo'yishdan avval albatta natyurmort o'rnatiladigan joyni aniqlash lozim bo'ladi. Aytaylik, devor yaqinida stol bo'lsin. Birinchi navbatta stol satxi bilan uning orqasidagi devor orasidagi nisbat aniqlanadi. Shundan so'ng natyurmortni o'rnatga bo'ladi. Ishni eng yirik narsadan boshlaymiz, ya'ni eng yirik predmet birinchi joylashtiriladi. Natyurmortning atrofdagi qismini hayolan chegaralab, vazani markazdan o'ng tomonga bir oz siljitib qo'yib ko'ramiz. Devor yaqinida joylashgan idish e'tiborni o'ziga jalb qilish bilan birga stol va devorning kerakli qismini ko'z bilan qamrab olishga yordam beradi. Endi garchi muvozanat sodir bo'lgan bo'lsada, bu buyumlar o'rtasidagi aloqadorlik yaqqol ko'rinmayapti, vaholanki tomoshabinning nigohi bitta narsadan ikkinchisiga sakrab o'tishi kerak.

Narsalarning shaklini va fazoviy joylashuvini to'liqroq ochib berish uchun yorug'lik nurlari olddan va yondan tushadigan bo'lishi kerak. Shunda natyurmortdagi predmetlarning yorug'lik manbaiga qaragan tomonidan yorug'lik, qarshi tomonda soya, yarim soya, refleks va tushuvchi soyalar yaqqol ko'rinib, bular hammasi birgalikda ularning hajmdor ekanligini yaqqol ko'rsatib turadi. Birinchi plandagi narsalarning aniqroq ko'rinishini taminlash uchun natyurmortning bir qismini maxsus to'siq bilan berkitish mumkin, bunda ikkinchi plandagi narsalarning shakllari umumlashadi, birinchi plandagilar esa ravshanroq ko'rinadi. Tabiiy yorug'likning kuchi yetarli bo'lmasa natyurmortning yon tomoniga sun'iy yoritkich qo'yiladi. Shunda oldindagi narsalarda yorug'-soya kontrasti keskin bo'lib, ularning hajmdorligi bo'rtib ko'zga tashlanadi, sirlari yaqqol ko'rinadi. Ikkinchi plandagi narsalarda esa ziddiyat kamroq seziladi. Ba'zi sirtlarga yorug'lik nurlari ko'proq tushganligi sababli ravshan, ba'zilar esa qoramtir bo'lib ko'rinadi. Narsa sirtlarining ravshanlik darajasi u bilan yorug'lik manbai sirtidan qanchalik uzoqda bo'lsa, sirt shunchalik nursiz bo'ladi, aksincha manba yaqin joylashsa yoritishi kuchli bo'ladi. Yana shuni hisobga olish kerakki, yoritgichga yaqinroq joylashgan narsalarda uzoqroqdagiga nisbatan yorug' va soya ziddiyati keskinroq seziladi. Sirtlarning yoritilish darajasi yorug'lik nurlarining yo'nalishiga ham bog'liq. Yorug'lik nurlari sirtga to'g'ri burchak ostiga,

yani tik yo`nalsa, bu sirt eng yorug` bo`lib ko`rinadi. Yorug`lik nurlari qiyalab, sirtning yonidan o`tsa, unga yorug`lik ham tushadi va natijada u holiroq bo`lib ko`rinadi. Undan tashqari sirtning yoritilish darajasi ayni shu sirtning tuzilishiga bog`liq yaxshiroq, silliq sirti yorug`likka ko`proq qaytaradi, g`adir-budir, qoramtir sirt esa ko`proq nurlarni yutib, oz qismini qaytaradi. Shularning hammasini hisobga olgandagina natura bilan tasvir o`rtasida haqiqiy o`xshashlikka erishish mumkin.

Rasm ishlashning yakunlovchi bosqichida natura bilan tasvirni yana yaxshilab taqqoslab, umumlashtirib chiqish lozim. Buning uchun rasm ishlanayotgan taxta(planshet) ni naturaga yaqinroq yerga qo`yib, o`tirgan joydan har ikkalasiga tez-tez ko`z yuritib qarasa ham bo`ladi. Bunda ba`zi soyalar qorayib ketgan bo`lsa yoki natyurmortning bir qismi ajralib ko`rinib qolgan bo`lsa, ularni tuzatib, reflekslar juda ravshan bo`lib qolgan bo`lsa bir oz xiralashtirib, natura bilan uning tasviri o`rtasida to`la o`xshashlikka harakat qilinadi. Shunday qilib, tasvirni natura bilan muttasil solishtirib borish, rasm chizishda ma`lum izchillikka amal qilish, asta-sekin umumiy tasvirdan qismlar tasviriga o`tish tartibida olib borish va oxirida yana yaxlitlashtirib natyurmortning haqqoniy tasvirini hosil qilinadi. Endi eng muhimi, qo`ygan natyurmortimiz o`zimizga yoqadigan bo`lishi lozim, shunda uni ishtiyoq bilan tasvirlaymiz. Birinchi navbatta, tanlangan narsalarning yagona maqsadga qaratilgan yaxlit bo`lib ko`rinadigan qilib qo`yib ularni devor yaqiniga bir qator qilib terib qo`yamiz, keyin fondan goh uzoqlashtirib, goh yaqinlashtirib qarab kuzatamiz.

Nurlarning kuchi kamayib borgan sari uchinchi plandagi narsalarda qarama-qarshilik yana ham mayinlashadi, ularning chegaralari fonning to`q joylari bilan umumlashib ko`rinadi. Natyurmortlarga qo`shimcha kiritiladigan narsalar shunday holatda qo`yilishi kerakki, u har ikkala buyumning bir-biri bilan mazmunan boyiydigan bo`lib ko`rinadi. Endi postanovkaning yoritilish masalalarini hal qilish lozim. Yorug`lik nurlari natyurmortga bir tomondan tushadigan qilib uning yon tomonidan yuqoriroqda yoritgichlar o`rnatilsa, qo`yilgan narsalarning shakli yaqqol ko`rinadi, shaxsiy va tushuvchi soyalar aniq ko`zga tashlanib turadi. Ma`lumki, narsalar silliq va g`adir –budir, yaltiroq va xira, tekis va notekis sirtli bo`ladi. Ularning qanaqa ekanligini natyurmortda ko`rsatishdan maqsad, qo`yilgan har bir narsaning shakli yaqqol ko`rinadi, shaxsiy va tushuvchi soyalar aniq ko`zga tashlanib turadi. Maqsad har bir narsaning shakli va tuzilishini aniq ochib berishdir. Masalan, idishlar har xil materiallardan ishlangan bo`ladi, chinni, spool, shisha, sirlangan yoki ruxlangan metallardan va xokazo. Bularning fakturasini tasvirlab ko`rsatish uchun alohida usullar qo`llanilmaydi, faqat ularning sirtidagi yorug`, yarimsoya, soya, refleks va bliklarning o`z o`rni to`g`ri topilsa bas. Shuni hisobga olish kerakki, o`z-o`zidan ma`lumki, bo`yoq taxtachani ham ozoda tutish lozim. Har gal shuni tugatgandan keyin ortiqcha qorishmalarni maxsus asbob bilan sindirib tashlash, taxtachaning ustini moyli latta bilan

yaxshilab artib qo'yish lozim. Uzoq muddat ishlay olmaydigan bo'lsangiz, (orqa), ortiqcha toza bo'yoqlarni ham olib tashlash darkor, chunki ular baribir qotib qoladi. Mayli bo'yoqlar bilan rangtasvir ishini bajarish uchun maxsus tayyorlangan asoslar mato, taxta, karton yoki qalin qog'oz bo'lishi kerak. Bular orasida eng keng tarqalgani matodir. Uni ishga tayyorlash uchun suyuq yelim va oq bo'yoq kukunidan maxsus qorishma tayyorlanadi. Gruntlashdan avval mato tagromga tortiladi. Buning uchun mato bo'lagi romchadan har tomonlama bosimdan kattaroq bo'lishi kerak. Matoni romchaga mixlab, tarang tortiladi. Tagromning katta-kichikligini va formati etyud kompozitsiyasiga bo'ysindirilib, eskizlar tanlanadi, taxtachalar bir-biri bilan yog'och qoziqchalar yordamida biriktiriladi. Qiyshayib ketmasligi uchun mixlashni romchaning o'rtasidan boshlab asta-sekin tekislab boriladi, va mixlar har 1,5, 2sm masfada qoqiladi. Tortilgan mato avval katta mo'yqalam bilan xo'llanadi, so'ngra bir sidra yelim eritmasi yupqa qatlam tarzida matoga suriladi. Yelimni tayyorlash uchun uni maydalab, sovuq suvda bir necha soat ivitib qo'yiladi. Uni maxsus idishga solib qaynab ketishiga yo'l qo'ymasdan, sust olovda eritiladi. Yelimlangan mato xona ichida asta-sekin quritiladi. Bir necha soatdan elim qatshisha idishga uning tiniqligi, tufayli yaltirash, tovlanish, ayniqsa ko'p namoyon bo'ladi. Bularni tasvirlash bilan birga, naturaning yaxlit hajmdor shaklini ko'rsatish ham lozim bo'ladi.

Natyurmortlarning tarkibiy qismiga burmalangan gazlamalar kirish bilan mazmundorlik oshadi. Tasvirda gazlamalarning o'ziga xos tuzilishi, ulardan taxlam va burmalarning shakli orqali ifodalanadi. Shuning uchun rasmda ayni shu gazlamaga o'xshashlikka erishishning birdan-bir to'g'ri yo'li taxlarning shaklini yorug' va soyalar vositasida batafsil ishlab chiqishdir. Dastlab natyurmortlarda dag'al, sidirg'a matolardan foydalanish, ulardan yirik burmali yaxlit taxlar hosil qilish mumkin, bu esa tasvirlash uchun qulay. Keyinchalik malakaning ortishi bilan natyurmortlarni murakkablashtirib, mayin to'qilgan har xil matolardan taxlash mumkin. Natyurmortlarning asta-sekin murakkablashtirish darajasi narsalar sonini ko'payish, ularning turli-tuman rang-barang shakl va o'lchovga ega bo'lishi hisobiga amalga oshiriladi. Quyidagi narsalar albatta, murakkabroq, yirik narsa bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Natyurmort tuzishda tajribasi yo'q odam ham qandaydir ichki hissiyoti asosida chiroyli guldondagi rang-barang gullar yoniga olma qo'yib tasvirlanishi mumkin.

Murakkab natyurmortlar ustida ishlashning o'ziga xosligi, ularning kompozitsiyasi mukammalroq hal etishda, har bir narsaning shaklini atroflicha fikr yuritib aniqlashda har bir narsaning sirtini tasvirlab, uning materialini aniq ko'rsata olishda namoyon bo'ladi. Pastanovkaga kiradigan har bir narsaning shaklini perspektiv qisqarishlari bilan chizib olgach ularning och-to'qlik darajalarini farqlagan holda asosiy soyalar qo'yib chiqiladi. Soyalar bir yo'la narsalarning panasida, yopiq tekislikda, ustida va devorda belgilanadi. Bu esa tasvirda naturadagi kabi to'q birligiga erishishi va har bir narsaning o'ziga xos shaklini to'laroq ochib

berishga imkon beradi. Narsalar shaklini aniqlashtirib borib, natyurmortdagi nozik farqlarni topishda yuqorida aytilgan izchillikka rioya qilish kerak, ya'ni avval yirik shakllarni, katta qismlarini matodagi asosiy burmalarni tasvirlash, so'ngra esa mayda va chakana tafsilotlarini tasvirlashga o'tish kerak. Bunda chiziqlar albatta narsalarning shakliga monand yo'nalishda bo'lib, uning shaklini bo'rtirib ko'rsatishi kerak. Shuning uchun shunday qilib tasvirning hammasiga ishlov berishga, uni natura bilan yopishtirib, solishtirib qarash kerak. Bunda chiziqlar albatta narsaning shakliga monand yo'nalishda bo'lib, uning shaklidagi noaniq yerlarini yana ishlash kerak bo'ladi. Unda ton jihatdan kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa darhol bartaraf etish lozim. Birinchi plandagi narsa uzoqroqda tuyulsa uni yaqinlashtirish aksincha, orqa plandagi narsa juda yaqqol korinib qolgan bo'lsa, uni bir oz xiralashtirish lozim. Xullas, natyurmortning tasviri uning o'zi kabi yaxlit taasurot qoldira olishi zarurdir. Shu darajaga erishmaguncha ishni shu tarzda davom ettirish lozim.

2.2 Natyurmortda ranglar uyg'unligi

Nafaqat natyurmortda, balki rangtasvirning barcha janrlarida ishlash uchun biz ranglarni, ularning qanday xosil bo'lishini yaxshi bilishimiz kerak bo'ladi. Shunday ekan biz rang tayyorlash usullarini ko'rib chiqamiz.

Rang tayyorlashda qo'llaniladigan mexanikaviy usul. Ushbu usul bo'yicha bo'yoqlar mexanikaviy tarzda aralashtiriladi.

Masalan a) sariq ko'k yashil

b) ko'k qizilq binafsha.

Ushbu amaliy jarayoni o'tkazish uchun ma'lum o'lchamida plitkalar tayyorlanadi va ularning usti rangli angoblar bilan bekitiladi. Bu vazifani bajarishda kulolchilik bo'yoqlarni tarkibi, kimyoviy tuzilishi va kuydirish jarayoniga e'tibor qilish lozim. Vazifalarni asosiy maqsadi: spektorni rang barang tuslarini aniqlash va rangli doira tuzish.

Shuning bilan birga, angobdan tashqari rangli sirlar bilan xam ishlash mumkin. Bu borada avval plitkalarni usti oq angob bilan bekitiladi. Uning ustiga yo'li bilan rangli sir tortiladi va so'ngra boshqa rangli sir bilan bekitiladi. Ushbu usul bilan bir kecha rang va tuslarni tayyorlab, rang doirasini tuzish mumkin.

Ushbu vazifani bajarishda quyidagi xom ashyolar ishlatiladi: rangli sir, mayolika, emal, qizil loy.

Birinchi navbatda plitkalar yoki boshqa shakldagi sinov probnikalar – sopolaklar tayyorlanadi. Ularning ustiga oq emal beriladi. Bundan keyin oq emal ustidan pulvirizator yordamida puflash usulida rangli sir, mayolika, emal qoplanadi. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, sopolaklar avval rangli angob bilan berkitilib, ularning ustidan rangli sirlarni sepish mumkin.

Ushbu vazifalarda quyida buyumlar ishlatiladi (rangli angoblar, rangli sir mayolika) oqibatida aeroxel puflash usulida ranglar majmuasini ketma-ketligini olish mumkin.

Biz o'z bitiruv malakaviy ishimizni moybo'yoqda tayyorlayotganligimiz uchun moybo'yoqlar bilan tanishib chiqishimiz zarur bo'ladi.

Moy bo'yoqlar.

Berkituvchan va lessirovkali bo'yoqlar. Ayrim moy bo'yoqlar yaxshi berkitadi, boshqalari yomon berkitadi. Yupqa qatlamda ular shaffof berkituvchanligi va lessirovkali xususiyati moy bo'yoqlarni o'zidagi pigmentlari va ularni moy miqdoriga bog'liq. Qoidaga binoan, tarkibida ko'p moy bog'lovchisi bor. Bo'yoqlar lessirovkali xususiyatiga ega , bog'lovchisi kam miqdorli bo'yoqlar berkituvchan bo'ladi. Lessirovka oldindan qo'yilgan bo'yoq qatlam va yaxshi qurigan bo'yoqlar ustiga shaffof qilib beriladigan yupqa moy bo'yoq qatlami, maqsad: katta bo'lmagan bo'yoq qatlam ustini yupqa bo'yoq berib yana xam bo'yoqni rangi va tusini ko'paytirish yoki kamaytirishdir. Bunga quyidagicha erishiladi: tagida yotgan bo'yoq qatlam yoriqlikni qaytarib ustki yupqa lessirovka qatlamidan nur o'tib ustidagi yupqa bo'yalgan rang bo'yoqlar bilan aralashadi. Lessirovkalar qadimgi rangtasvir ustalarini uslubi sifatida katta o'rin egallagan. Zamonaviy rangtasvirda lessirovka uslubi unchalik ko'p uchramaydi.

Berkituvchan moy bo'yoqlarga quyidagilar kiradi: qo'rg'oshinli va ruxli oqartiruvchilar, kinovar, kadmiy, xrom oksidi, oxralar va boshqalar, lessirovka bob bo'yoqlar kraplaklar, yashil zumrat rang , xind sarig'i, ultramarin va boshqalar bu xali to'liq emas. Rassomlar asariga mos boshqa ranglardan extiyojiga qarab foydalanishgan.

Pastasimonlik. Bir xil ma'romdagi konsistentsiyali bo'yoq deb aniqlanadi. Moy bo'yoqlarni pastasi o'ta elim shiq, suyuq oqib ketadigan yoki uzilib olganday, quyuq yoki suyuq bo'lmasligi kerak, aksincha rassom ishlatganda qulay bo'lishi shart. Pigmentlarni yuqori dispersligi astoyidil shiddat bilan moy pigmentini ishqalab tuyib qorishtirish natijasida moy bo'yoqlar me'yoridagi pastasimonlik xosil bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishga amaliy ish sifatida "Guldastali natyurmort"ni moybo'yoqda tasvirlanishi va unda ranglar uyg'unligi.

Biz natyurmortni chizishdan oldin ko'plab eskiz va qoralamalar bajarib, so'ngra aniq bir kompozitsiyani yaratib oldik. Unga 60X80 o'lchamdagi chizish tekisligini DVP faneradan tayyorlab oldik. Uni yaxshilab gruntnab, oq kraska bilan fon berib oldik. Tayyor kompozitsiyani tekislikka tushurdik va ranglash jarayonini boshladik. Ranglashda biz moybo'yoqdan foydalandik. Guldastani shisha idishdagi holatini va uning oldida olma va limon mevalarni turganini ranglar uyg'unligini hisobga olgan holda tasvirlashga harakat qildik. Idishdagi qizil gullar va qizil olma bir-biriga uyg'unlig berib turadi. Orqa fon umumiy havorang koloritda

ishlandi. Materialdagi yorug'-soyalar, buklamalar yaxshilab ishlab chiqildi. Gullar barglarining yashilligi, idishning shisha materialligi ham natyurmort umumiy koloritini to'g'ri ifodalashga qo'l keldi. Shisha idishga olma va limonning shu'lalarini, narsalarning o'zidagi va tushuvchi soyalarini yorug'-soya qonuniyatlar asosida ishlab chiqdik. Amaliy ishni bajarishda ilmiy rahbarimning va mutahassis ustozlarimning maslahatlariga tayandim. Natyurmortdagi barcha narsalarning bir-biriga ranggini urishi, ranglarning umumlashuvi, kontrast joylar va detallashtirishlarga e'tibor bergan holda ishni yakuniga etdim. Amaliy ishni bajarib bo'lgach unga mosch baget qo'yib, uni tugalladim.





XULOSA

Bitiruv malakaviy ishim yakunida shuni xulosa qilib aytishim mumkinki, biz kelajakda yosh avlodni ta'lim - tarbiya olishida, tasviriy sakn'at orqali tabiatga, atrof – muhitga va predmetlarga bo'lgan qarashi, tasavvuri va umumiy dunyoqarashini shakllantirishda asos bo'ladigan pedagog kadrlar bo'lib yetishib chiqmoqdamiz. Shunday ekan biz o'z sohamaiz ustida bundan keyin ham ko'plab izlanishlar olib borishimiz va o'quvchilarni to'g'ri bilimlarga ega bo'lishlari uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilishimiz lozim bo'ladi. Bitiruv malakaviy ishimda **“Tasviriy san'atda natyurmort janri va natyurmortda ranglar uyg'unligi”** mavzusini yoritib berishga xarakat qildim. Bitiruv malakaviy ishimni tashkil etgan ikki bob va shu boblar tarkibidagi bo'limlarda natyurmort janrining o'ziga hosliklari, murakkabliklari va qiziqarli tomonlari hamda asosiysi, mavzuga mos ranglarning ahamiyati xaqida yoritib berdim. Mavzuni tashkil etgan boblarni birinchisini **“Rangtasvirda rang munosabatlari, natyurmort ishlashning o'ziga hos hususiyatlari”**- deb nomladim va bu bobda rangtasvir haqida, rangtasvirda ranglarning o'zaro munosabati xaqida, ranglarni yaxshi anglagan holda rangtasvirda amaliy ish bajarilishi lozimligi xaqidagi ma'lumotlarning kiritdim. O'z o'rnida natyurmortni rangtasvirda chizilishi, qurilishi va tasvirlanishiga kirib bordim. Natyurmortni to'liq janr sifatidagi talqinini keyingi **“Natyurmort ishlash usullari hamda natyurmortda**

ranglar uyg'unligi"- deb nomlangan bobda kengroq yoritib berishga intildim. Natiurmort tasviri san'atning qiziqarli va jozibali janrlaridan biri ekanligi va bu janr o'quvchilarning tasavvurlarini rivojlantirishda asos bo'lib xizmat qila olishi xaqida fikrlar kiritildi. Har bir bob ikkitadan bo'limga ajratilib, shu bo'limlarda bob mavzularini ochib berdim.

Birinchi bobni **"Rangtasvirda rang munosabatlari va akvarel bilan ishlash texnologiyasi"** hamda **"Naturadagi rangtasvir jarayoni va natiurmort ishlashning o'ziga xosliklari"**-deb nomlangan bo'limlar tashkil etadi va bu bo'limlar bob mavzusini ochib berishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bobni **"Natiurmort – rangtasvirning mustaqil janri sifatida. Natiurmort tuzish va uni tasvirlash usullari"** hamda **"Natiurmortda ranglar uyg'unligi"** nomli bo'limlar yoritib beradi. Ana shu ikkinchi bobning ikkinchi qismini men o'z bitiruv malakaviy ishim uchun amaliy ish sifatida tanlab olganim "Guldastali natiurmort" natiurmortini ishlanish bosqichlariga bag'ishladim. Unda ishning qanday boshlanishidan tortib, uning tayyor holatga keltirilishigacha bo'lgan bosqichlarga e'tiborimni qaratib chiqdim. Natiurmortda nisbatlarning juda katta ahamiyat kasb etishi va ranglar orqali bizni ikkilantiradigan va topilishi qiyinroq bo'lib turadigan holatlarni onsonroq topib olish yo'llarini ko'rsatib chiqdim. Nafaqat natiurmortni, balki tasviri san'atda boshqa har qanday narsalarni yoki tasvirlarni bajarishda perespektivani esdan chiqarmagan holda o'zaro nisbatlarga to'g'ri ahamiyat bergan holda ishni bajarish tasvirlovchining katta yutug'i bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari ranglarni to'g'ri tushunib yetish ham narsalarni to'g'ri tavirlashda muhim o'rin egallaydi.

Rangtasvir mashg'ulotlarida ranglar bilan ishlashda talabalarni ko'pchilik hollarda qiynab qo'yadigan narsa ranglarning o'zbekcha nomlarini yaxshi bilmaslikdir. Talabalarga rangtasvir mashg'ulotlarini olib borish uchun bo'lajak tasviri san'at o'qituvchisi rangtasvir asoslarini puxta egallash va rangshunoslik nazariyasini mukammal bilishi shart. Shuning bilan birga realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini uzlashtirish va amaliy mashq qilish natijasida savodli rangda ifoda yo'llarini o'rganish mumkin. Bu hol, ayniqsa, natiurmort ishlashda, uning ranglari to'grisida so'z yuritganda ko'zga yaqqol tashlanadi. Malumki bo'yoqlarning 150 dan ortiq ruscha tuslari mavjud.

Tasviri san'atning barcha turlarida rang muhim ro'l o'ynaydi. Rang gammasi deganda tasvirlarni ishlash jarayonida qo'llanadigan tus va ranglarning o'zaro muvofiq kelishini tushinamiz. Bu xolatni quyidagi jonli misol biln izohlasak o'rinlidir, masalan, musiqa san'atidagi ovozlar ma'lum notalar yordamida belgilanadi va foydalaniladi. Ular o'z holicha aloxida-aloxida bir-biri bilan uyg'unlashtirilmay chalinsa ma'nosiz uzuq-yuluq ovozlardan iborat bo'lib qoladi. Agar ma'lum bandlikda va tartibda uyg'unlashtirib chalinsa yoqimli bo'lib eshitiladi.

Ma'noli tasavvurlar zavq berish qudratiga ega bo'ladi. Ularning sifati ovozlari o'rtasidagi vaqt masofasi, ovozlarning yo'g'on-ingichkaligiga ham bog'liq. Rangtasvirlarni ishlash jarayonida ham xuddi keltirgan misolimiz kabidir, ya'ni har bir rang va tusning o'z yorqinligi va to'q- ochligi mavjud. Ularni nechog'lik bir-biriga mosini topib, o'zaro muvofiq tarzda qo'llasak shunchalik tasvir sifatida aksini beradi, ma'no tashish quvvatiga ega bo'ladi. Agar bo'yoqlarni tasvir obektiga zid xolda birini juda yorqin, boshqasini narsiz qilib o'zaro bog'likligiga moslamay ishlatsak, rangtasvir ma'nosiz va ta'sirsiz chiqib qoladi. Ranglarning yorqinlik kuchi va to'q-ochligi xuddi tabiatdagidek qilib olish va tasvirlashda qo'llash juda qiyin. Shu sababdan ham ular ochroq yoki to'qoq g'mmalarda tasvir obektlariga mos tarzda, ma'lum nisbatlarda qilib olinadi. Mo'ljaldagi olingan gammaga moslab tasvirning eng to'q va eng och qismlari darajasi belgilab olinadi. Shunda ishlangan tasvirlar yaxlitlik, qiziqarlilik kasb etadi, ta'sirchan chiqadi.

Har bir narsa va xodisa tasvir etilar ekan, uni xuddi aslidagidek qilib aks ettirish mumkin emas. Buni ko'pchilik san'at nazariyotchilari va rassomlar, amaliyotchilar doimo takidlab keladilar. Zero, tabiatni tasvirlash undan olingan tasavvurning qay darajadiligiga bogliq muhimi tabiat ko'rinishi realligi tasavvurini obrazli tarzda ifoda etsa ishonarli bo'lsa shuning o'zi kifoya, o'zbek rassomlari ichida ham rangga juda etiborli munosabatda bo'ladigan, uning go'zal uyg'unligini ifodalab bera oladiganlari ko'p. Bunday usta, maxorat egalari mo'yqalam soxiblaridan M.Nabiev, R. Axmedov, R.Choriyev, B.Burmakin, B.Boboyev, J.Umarbekov, A.Mirzayev, A.Ikromjonov, M.Toshmurodov, A.Nuriddinov, A.Qozoqov. va boshqalarning nomlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ularning ko'plab ajoyib asarlari fikrimizni tasdiqlab turibdi.

Ma'lumki, tasvir ishlashni rang vositasida ishlash jarayonida atrof-muxit holati muxim ahamiyatga ega. Chunki chizilayotgan obektga yorug'lik manbai atrofdagi boshqa buyumlarni ta'siri kuzatiladi. Ular o'z rangi, tusi bilan o'zaro muvofiq yoki nomuvofiq bo'lishi mumkin. Rassom ana shunday o'zgarishlarni chuqur anglab, taxlil qilib, so'ng ifoda etishi kerak. Aks xolda tasvir jonsiz, ta'sirsiz chiqib qoladi, o'rganayotganlar uchun bunday holatlarni xisobga olib tasvirlashda natyurmortlar juda qo'l keladi. Chunki unda buyumlardagi soya, shulalar, rang tuslarining uyg'unligi ifodaviyligi yaqqol ko'rinib turadi. Ular tasvir shaklini, yorqinligini, yaxlitligini ko'rsatishda xizmat qiladi. Natyurmortni qanday xonada qo'yilganligini ham uning yorug' yoki qoronguligi nur derazadan qay holatda va burchak ostida tushayotgani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu'la («blik») va rangli shu'la («refleks») natyurmortdagi barcha predmetlarda aks etib turadi. Ayniqsa, yaltiroq sirtli narsalar satxida bu yaxshi sezilib turadi. Chunki ular yorug'likni yutmaydi, balki yogdulanib kaytaradi. Nurni o'zida sindirib yuboradigan sirtli narsalarda aks shu'lalarni ba'zan sezib qolish qiyinroq boladi. Ammo ularni talaba ilgab

oilsini va tasvirlashni doimo mashq qilishi kerak. Buning uchun har bir o'rganuvchi yosh rassom o'z bilimini ham nazariy, ham amaliy jihatlarini kitob qo'llanmalaridan o'qib, rangtasvir namunalarini muzey va ko'rgazma zallarida ko'rishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz, kelajak yo'q" . - Toshkent: O'zbekiston, 1998.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch." - Toshkent.: Ma'naviyat, 2008.
3. N.Tolipov "Rangtasvir asoslari" . Toshkent-2002
4. S. Abdirasilov, N.Tolipov, N.Oripova "RANGTASVIR" (o'quv metodik qo'llanma). Toshkent - 2003
5. Apuxtin O.K. "Tasviriy san'at haqida suxbatlar" T.1961.
6. Nabiev M. N. "Rangshunoslik" Toshkent - 1995.
7. Xudoyorova O. "O'zbekiston maktablarida tasviriy san'at o'qitish tarixidan" Toshken - 1993.
8. Oripov B.T. "Darsning samaradorligini oshirish yo'llari" Toshkent - 1983y
9. Hasanov R.X. "Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari" Toshkent - 1981.
10. Majidov J. "Maktabda tasviriy san'at bo'yicha o'quv tarbiyaviy ishlarni tashkil etish"

Toshkent- 1995.

11. Nabiev M.N, Azimova B. “Rasm chizishni o‘rgatish metodikasi”

Toshkent - 1976.

12. H. Toshmatov “Tasviriy san’atning tur va janrlari”

13. R.Hasanov . “Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar” Toshkent-2006

14. Oyidinov N. “Ajdodlarimiz san’ati va etiqodi”. Toshkent - 1992.

15. Z.Egamberdiev, R. Xasanov va boshqalar. “Rasm chizish va uni o‘qitish metodikasi” Toshkent - 1977.

16. Rostoletsev N.N. “Istoriya metodov obucheniya risovaniyu” Moskva -1982.

17. Vasilevskiy A.K. “Iskusstvo i shkola”. Moskva. Proevshenie - 1981.

Ilovalar

